$$= \mu_B^2[(\hat{L}_x\hat{L}_y + 2\hat{S}_x\hat{L}_y + 2\hat{L}_x\hat{S}_y + 4\hat{S}_x\hat{S}_y) - (\hat{L}_y\hat{L}_x + 2\hat{S}_y\hat{L}_x + 2\hat{L}_y\hat{S}_x + 4\hat{S}_y\hat{S}_x)] = i\mu_B^2[\hat{L}_z + 4\hat{S}_z] \qquad (1.14)$$

Kommuntatirmunosabatlar: $[\hat{L}_x, \hat{L}_y] = i\hat{L}_z$ i $[\hat{S}_x, \hat{S}_y] = i\hat{S}_z$.

Natijada $\omega^2 >> \omega_{a,b}^2$ spektral sohada Faradeyning magnito dipol effekti uchun umumiy ifodani quyidagicha ko‘rinishda yozish mumkin [7-10]:

$$\alpha_F^{(m)} = \frac{\pi \bar{n}}{c}(\frac{e}{mc}) \cdot [g_0 M_0 + 3\Delta M_{VV}] \qquad (1.15)$$

bu yerda (umumiy xolda) $M_0 = \sum_{mi} m g_0 \mu_B N \rho_i$ - multiplet J_0 ning asosiy xolati o‘rtacha magnit momenti; $\Delta M_{VV} = \frac{2N\mu_B^2 H}{\Delta} \sum_{mi} S_m^2 \rho_i$ - NE-birikmasi magnitlanganligiga Van-Flekovsk xissasi.

Namoyishli misol sifatida T = 0 bo‘lganida Eu^{3+} ionlaridagi giromagnit FE ni ko‘rib chiqamiz. MD-o‘tishlarga asoslangan Faradey aylanishlari uchun ifoda u xolda (1.15) ko‘rinishida ifodalanishi mumkin [2-7], bunda Eu^{3+} (J_0= 0) ionining asosiy multipleti nolga teng bo‘lgan Lande faktoriga ega (g_0 = 0) bo‘ladi. Bu vaqtda temperaturaanin $T \neq 0$ shalarida yevropiy ionlari “giromagnit” FE ning temperaturaviy bog‘liqligi quyidagi ko‘rinishga ega (erkin ioni yaqinlashishida):

$$\alpha_F^{(m)} = 2g_1 \frac{\pi \bar{n}}{c} \left(\frac{e}{mc}\right) \cdot [\Delta M_{VV} + \frac{1}{2}(M_1 + M_2)] \qquad (1.16)$$

$$\Delta M_{VV}^{(0)} = \frac{8N\mu_B^2}{\Delta_1 Z_0} (1 - e^{-\frac{\Delta_1}{kT}}) H \qquad (1.17)$$

$$M_1 + M_2 = \frac{9N\mu_B^2}{2\hat{e}T \cdot Z_0} \left(e^{-\frac{\Delta_1}{kT}} + 5e^{-\frac{\Delta_2}{kT}} \right) H \qquad (1.18)$$

bu yerda M_1 va M_2 – Eu^{3+} ionlari $J_1 = 1$ va $J_2 = 2$ multipletlarining zeyeman quyi sathlari termik egallanishiga asoslangan o‘rtacha magnit momentlar; $g_1 = g_2 = 1{,}5$ – $J_1 = 1$ va $J_2 = 2$ multipletlarining Lande faktorlari; Z_0- statistik yig‘indi, va $\Delta_1 \approx 350$ cm^{-1} , $\Delta_2 \approx 10^3 cm^{-1}$ [4].

Kristalldagi Eu^{3+} ionlarning natijaviy magnitlanganligi odatda M_1, M_2va $\Delta M_{VV}^{(0)}$ xissalarning additiq yig‘indisi kabi ifoda etilishidan:

$$M = (\Delta M^{(0)}{}_{VV} + M_1 + M_2) \qquad (1.19),$$

FE uchun ifoda bu xolda quyidagichatarzda qayta yozilishi mumkin [2-7]:

$$\alpha_F^{(m)}(Eu^{3+}) = \frac{\pi \bar{n}}{c}\left(\frac{e}{mc}\right) \cdot [3\Delta M_{VV}^{(0)} + (g_1 M_1 + g_2 M_2)] = \frac{2\pi \bar{n}}{c}\left(\frac{g_1 e}{mc}\right) \cdot [\Delta M_{VV}^{(0)} + \frac{1}{2}(M_1 + M_2)]$$
$$= \frac{2\pi \bar{n}}{c}\left(\frac{g_1 e}{mc}\right) \cdot [M - \frac{1}{2}(M_1 + M_2)] = \frac{2\pi \bar{n}}{c}\left(\frac{g_1 e}{mc}\right) \cdot [\chi - \frac{1}{2}(\chi_1 + \chi_2)] H = \frac{2\pi \bar{n}}{c}\left(\frac{g_1 e}{mc}\right) \cdot \chi'' H \qquad (1.20)$$

bu yerda $\chi'' = \chi - \frac{1}{2}(\chi_1 + \chi_2)$, $\chi_1$va χ_2–$^7F_1$ va $^7F_2$ multipletlarining zeyeman quyi sathining termik egallanishidagi farqga asoslangan Eu^{3+} ionlari magnit qabl qilvchanligiga χ mos xissasi.

[9] ish natijalariga ko‘ra, ajratilgan $4f \rightarrow 5d$ o‘tishlar rezonans chastotasidan uzoqlashtirilgan yorug‘lik chastotalari diapazonida yevropiyning uch valentli (NE) nodirer ionlari Verde $V(Eu^{3+})$ doimiysi spektral bog‘liqligi -keltirilgan:

$$V(Eu^{3+}) = \frac{K}{\lambda^2 - \lambda_0^2} + V_{gm}^{(m)} \ , \qquad (1.21)$$

bu yerda birinchi a’zo EuGG dagi magnito optik faol (ED) elektro dipol o‘tishlar faradey aylanishidagi xissani ifoda etadi, λ_0 = 250 nm – granat tuzilmasida Eu^{3+} ionlarida yuz beruvchi ruxsat etilgan ED o‘tishlarning “samarali” to‘lqin uzunligi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdinazarov A. B. YBa2 Cu3 O7-x Investigation of the Nature of Relaxation Phenomena in Ceramics //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 12. – С. 163-
2. Shats P.N., Mak-Kafri A.D.Effekt Faradeya.//Uspexi ximii.-1971.-tom 11, № 9.-S.1698-1725.
3. Zvezdin A.K., Kotov A.V. Modern magneto-optics and magnetooptical materials (Bristol and Philadelphia: IOP Publishing, 1997), p. 386.
4. Stephens P.J. Magnetic circular dichiroism // Advan. Chem. Phys. – 1976. V.35. - R.197-264.
5. Valiev U.V., Gruber J., Burdick G. Magnetooptical Spectroscopy of the Rare-Earth Compounds: Development and Application. -USA (Irvin),2012, 139 s

TO’G’RI TO’RTBURCHAKLI NANOIP ICHIDAGI NANONUQTA ENERGIYA SATXLARI

A.B. Davlatov[1], R.Z. Muhiddinov[1], A.A. Sobirov[1], A.A. Qosimov[2]
[1]Namangan davlat universiteti
[2]To’raqo’rg’on agrosanoat texnikumi

Hozirgi kunda tajriba yo’li bilan nanoiplar optik yoki sirtida nanonuqtalar o’stirilmoqda. [1], [2] ishlarda vapor liquid-solid MOCVD method yordamida GaAs/InP nanoipi sirtida InAs kvant nuqtasi o’stirilgan va optik spektrlari o’rganilgan. [3] ishda GaAs nanoipida $In_{0.22}Ga_{0.78}As$/GaAs kvant nuqtasi tuzilmalarining juda bir xil va zich to’plamini namoyish etilgan. [4] ishda InP nanoipida InAsP kvant nuqtasini o’stirilgan va fotolyumensension spektrlar olingan. Bu gibrid strukturalar infraqizil lazerlar, 110ptic detektorlar, kvant kompyuterlar va quyosh batareyalari kabi yuqori samarali nanoiplarga asoslangan optoelektron qurilmalarda muhim element bo’lib xizmat qilishi mumkin. Nanoiplar ichidagi nanonuqtali heterostrukturalar yuqori samarali bitta fotonli manbalarni ishlab chiqarish, yangi kvant-optik tajribalar, shuningdek uchinchi avlod fotovoltaiklari, kvant kompyuterlar va oraliq diapazonli quyosh batareyalarini ishlab chiqarish uchun yangi yo’l ochadi.

Yarimo’tkazgichli nanoip ichidagi nanonuqta energiya satxlari va to’lqin funksiyalarini aniqlash uchun Shredinger tenglamasini yechamiz. Bitta zarraning statsionar holati uchun uch o‘lchovli Dekart koordinatalar fazosida Shredinger tenglamasi quyidagicha yoziladi.

$$-\frac{\hbar^2}{2}\left(\nabla\frac{1}{m^*(x,y,z)}\nabla\right)\psi(x,y,z)+V(x,y,z)\psi(x,y,z)=E\psi(x,y,z) \qquad (1)$$

Bunda, V -zarrachani tashqi maydondagi potensial energiyasi, m^* -effektiv massa, ψ -to‘lqin funksiya, E -to‘la energiya, $\hbar$ - Plank doimiysi, ∇ -Nabli operatori. (1) tenglamani analitik hamda chekli orttirmalar usullari yordamida yechamiz, elektronlar va kovaklar energiya satxlarini aniqlaymiz.

Analitik usul. GaAs/InP/GaAs geterotuzilmali nanoipida InP ning ichidagi InAs nanonuqtasidagi elektronlar va kovaklar energiya satxlarini aniqlaymiz. GaAs/InP/GaAs geterotuzilmali nanoipida InP ning ichidagi InAs nanonuqtasida elektron va kovaklarning zona profili x va y yo’nalishlari bo’yicha 1-rasmda, z yo’nalishi bo’yicha esa 2-rasmda keltirilgan. (1) tenglamaning x va y yo’nalishlaridagi yechimlari bir xil bo’ladi va u quyidagicha qidiriladi.

$$\psi(x,y)=\begin{cases}\psi_I(x,y)=C_{(x,y)1}e^{\chi(x,y)}, & (x,y)\in(-\infty,0]\times(-\infty,0]\\ \psi_{II}(x,y)=C_{(x,y)2}e^{\lambda(x,y)}+C_{(x,y)3}e^{-\lambda(x,y)}, & (x,y)\in(0,a_x]\times(0,a_y]\\ \psi_{III}(x,y)=C_{(x,y)4}\sin(k(x,y))+C_{(x,y)5}\cos(k(x,y)), & (x,y)\in[a_x,b_x]\times[a_y,b_y]\\ \psi_{IV}(x,y)=C_{(x,y)6}e^{\lambda(x,y)}+C_{(x,y)7}e^{-\lambda(x,y)} & (x,y)\in[b_x,c_x]\times[b_y,c_x]\\ \psi_V(x,y)=C_{(x,y)8}e^{-\chi(x,y)} & (x,y)\in[c_x,\infty)\times[c_y,\infty)\end{cases} \qquad (2)$$

(1) tenglamaning z yo’nalishidagi yechimlari esa quyidagicha qidiriladi.

$$\psi(z)=\begin{cases}\psi_{II}(z)=B_1e^{\lambda z}, & z\in(-\infty,0]\\ \psi_{III}(z)=B_2\sin(kz)+B_3\cos(kz), & z\in[0,h]\\ \psi_{IV}(z)=B_4e^{-\lambda z} & z\in[h,\infty)\end{cases} \qquad (3)$$

Bunda $\chi = \sqrt{\frac{2m_{(e,lh)1}}{\hbar^2}\left(V_{(e,lh)1} - E\right)}$, $\lambda = \sqrt{\frac{2m_{(e,lh)2}}{\hbar^2}\left(V_{(e,lh)2} - E\right)}$, $k = \sqrt{\frac{2m_{(e,lh)0}}{\hbar^2}E}$

Hosil qilingan (2) va (3) tenglamalar uchun to’lqin funksiyaga qo’yiladigan uzluksizlik va sinmaslik chegaraviy shartlarni qo’llaymiz hamda energiya satxlarini aniqlaymiz.

Chekli orttirmalar usuli. Yarimo’tkazgichli kvant o’rada, kvant ipda hamda kvant nuqtada energiya satxlarini aniqlash uchun chekli orttirmalar usulidan foydalanilgan [5]. To’g’ri to’rtburchkli va silindrik nanoiplarda energiya satxlarini hamda to’lqin funksiyalarini aniqlashda, effektiv massa o’zgarishini hisobga olgan holda chekli orttirmalar usulidan foydalanilgan [6-8]. Yarimo’tkazgichli nanoip ichidagi nanonuqta energiya satxlari va to’lqin funksiyalarini aniqlashda effektiv massa o’zgarishini hisobga olgan holda Shredinger tenglamasini yechishning chekli orttirmalar usulidan foydalanganimizda quyidagi tenglama kelib chiqadi.

$$\frac{m_{i,j,k}+m_{i-1,j,k}}{m_{i,j,k}+m_{i+1,j,k}}\psi_{i+1,j,k} + \frac{m_{i,j,k}+m_{i,j-1,k}}{m_{i,j,k}+m_{i,j+1,k}}\psi_{i,j+1,k} + \frac{m_{i,j,k}+m_{i,j,k-1}}{m_{i,j,k}+m_{i,j,k+1}}\psi_{i,j,k+1} - 6\psi_{i,j,k}$$
$$-\left(m_{i,j,k}+m_{i-1,j,k}\right)\frac{(\delta x)^2}{\hbar^2}\left(V_i - E\right)\psi_{i,j,k} - \left(m_{i,j,k}+m_{i,j-1,k}\right)\frac{(\delta y)^2}{\hbar^2}\left(V_j - E\right)\psi_{i,j,k} \quad (4)$$
$$-\left(m_{i,j,k}+m_{i,j,k-1}\right)\frac{(\delta z)^2}{\hbar^2}\left(V_k - E\right)\psi_{i,j,k} + \psi_{i-1,j,k} + \psi_{i,j-1,k} + \psi_{i,j,k-1} = 0$$

Hosil qilingan (8) tenglamadan foydalanib energiya satxlarini aniqlaymiz.

Natijalar va muloxazalar. Ko’plab yarimo’tkazgichli birikmalarda o’tkazuvchanlik va valent zonalari zaryad tashuvchilar energiyasi uchun noparabolik dispersiya qonuniga ega bo’ladi. Zonaning noparabolikligini hisobga olish uchun Keyn nazariyasidan [9] foydalaniladi. A_3B_5 birikmali potensial o’ra uchun o’tkazuvchanlik zonasini noparabolikligini hisobga olgan holda, energiya satxlarini hisoblashni sodda variantlari keltirilgan [10]. [11-12] ishlarda effektiv massa uchun turli xil taqribiyliklar keltirilgan. Biz elektronlar va kovaklarning effektiv massalarini energiyaga bog’liqligi uchun Nelson modelidan foydalanamiz [12]. Nelson modeli noparaboliklik effektini ifodalashda effektiv massalarning energiyaga bog’liqligi uchun juda qulay va sodda hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan (2), (3), va (4) tenglamalarda kiritilgan parametrlarni 1-2-rasmlardan va [13-14] ishda keltirilgan GaAs, InP va InAs moddalar zonaviy parametrlaridan foydalanib ifodalab olamiz. 3-4-rasmlarda o’lchamlari 25x25 nm bo’lgan nanoip ichidagi kubik nanonuqtaning qirrasi 5 dan 25 nm gacha o’zgarganda elektron va yengil kovaklarning birinchi to’rtta satx energiyalarining o’zgarishi tasvirlangan. Yuqorida keltirilgan analitik yechim va chekli orttirmalar usuli (14) beradigan yechimlar bir-biriga yaqin natijalar berishini ko’rishimiz mumkin. Nanonuqta qirrasi kichik bo’lganda chekli orttirmalar usuli beradigan natijalar 1 % xatolik bilan, nanonuqta qirrasi katta bo’lganda esa 0,1 % xatolik bilan natija berar ekan.

Xulosalar. Yarimo’tkazgichli nanoip ichidagi kubik nanonuqtadagi elektronlar va yengil kovaklarning birinchi to’rtta satx energiyalari Shredinger tenglamasini analitik va chekli orttirmalar usuli yordamida yechish orqali dispersiyaning noparabolikligini hisobga olgan holda aniqlandi.

Nanonuqta nanoip devoriga yaqin joylashganda satxlarga to’g’ri keluvchi energiyalar kattaroq qiymatlarda bo’lishini va nanonuqta nanoip o’rtalarida ko’chirilganda esa deyarli satxlariga to’g’ri keluvchi energiyalar o’zgarmas bo’lishi keltirilgan.

Agar yarimo’tkazgichli nanoipning qirrasi o’lchami nanonuqta qirrasi o’lchamiga yaqin bo’lganda energiya satxlariga mos keluvchi energiya qiymatlari kattaroq, nanoip qirrasi o’lchamini orttirib borganimizda nanonuqtadagi energiya satxlari kamayib borishi, nanoip

qirrasining o’lchami nanonuqta qirrasi o’lchamiga nisbatan kattaroq qiymatlarida energiya satxlariga to’g’ri keluvchi energiyalar deyarli o’zgarmas ekanligi ko’rsatildi.



1-Rasm. GaAs/InP/InAs/InP/GaAs geterotuzilma uchun zona profili.



2-Rasm. InP/InAs/InP geterotuzilma uchun zona profili.



3-rasm. To’g’ri to’rtburchakli o’chamlari 25x25 nm bo’lgan GaAs/InP/GaAs geterotuzilmali nanoipida InP ning ichidagi InAs kubik nanonuqtasidagi elektronlar energiya satxlarini nanonuqta qirrasi o’lchamiga bog’liqligi.



4-rasm. To’g’ri to’rtburchakli o’chamlari 25x25 nm bo’lgan GaAs/InP/GaAs geterotuzilmali nanoipida InP ning ichidagi InAs kubik nanonuqtasidagi yengil kovaklarning energiya satxlarini nanonuqta qirrasi o’lchamiga bog’liqligi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yan, X., Tang, F., Wu, Y., Li, B., Zhang, X., & Ren, X. (2017). Growth of isolated InAs quantum dots on core-shell GaAs/InP nanowire sidewalls by MOCVD. Journal of Crystal Growth, 468, 185–187. doi:10.1016/j.jcrysgro.2016.11.085.

2. Yan, X., Zhang, X., Li, J., Cui, J., & Ren, X. (2015). Fabrication and optical properties of multishell InAs quantum dots on GaAs nanowires. Journal of Applied Physics, 117(5), 054301. doi:10.1063/1.4906966.

3. Tatebayashi, J.; Ota, Y.; Ishida, S.; Nishioka, M.; Iwamoto, S.; Arakawa, Y. (2014). Highly uniform, multi-stacked InGaAs/GaAs quantum dots embedded in a GaAs nanowire. Applied Physics Letters, 105(10), 103104.doi:10.1063/1.4895597

4. Zhong, Z., Li, X., Wu, J., Li, C., Xie, R. B., Yuan, X., … Jagadish, C. (2019). Wavelength-tunable InAsP quantum dots in InP nanowires. Applied Physics Letters, 115(5), 053101. doi:10.1063/1.5095675.

5. Harrison P. Quantum Wells, Wires and Dots: Theoretical and Computational Physics of Semiconductor Nanostructures, 4th Edition. 624 Pages. 2005 John Wiley.

6. Gulyamov G., Davlatov A.B., Inoyatov S.T., Makhmudov S.A. Calculation of the energy levels and wave functions of electrons in nanowires by the shooting method. Journal of Applied Science and Engineering, **25**. 1, 31-36, (2022). https://doi.org/10.6180/jase.202202_25(1).0004.
7. Gulyamov G., Gulyamov A.G., Davlatov A.B., Juraev Kh.N. Energy levels in nanowires and nanorods with a finite potential well. Advances in Condensed Matter Physics. **2020**. 4945080, 12 p. (2020). https://doi.org/10.1155/2020/4945080.
8. Gulyamov G., Gulyamov A.G., Davlatov A.B., Shahobiddinov B.B. Electron energy in rectangular and cylindrical quantum wires. Journal of Nano- and Electronic Physics. **12**. 4, 04023-1-5 (2020). https://doi.org/10.21272/jnep.12(4).04023.
9. Kane E. Band structure of indium antimonide. J. Phys. Chem. Solids. **1**, 249 (1957); doi: 10.1016/0022-3697(57)90013-6.
10. Ekenberg U. Nonparabolicity effects in a quantum well: Sublevel shift, parallel mass, and Landau levels. Physical Review B, 40(11) (1989), 7714–7726. doi:10.1103/physrevb.40.7714.
11. Godoy A., Yang Z., Ravaioli U., Gámiz F. Effects of nonparabolic bands in quantum wires. J. Appl. Phys. **98**, 013702 (2005); doi: 10.1063/1.1940143.
12. Nelson D.F., Miller R.C., Kleinman D.A. Band nonparabolicity effects in semiconductor quantum wells. Physical Review B, 35(14), (1987), 7770–7773. doi:10.1103/PhysRevB.35.7770.
13. Adachi S. // GaAs, AlAs, and $Al_xGa_{1-x}As$: Material parameters for use in research and device applications // Journal of Applied Physics, (1985). **58**(3), R1-R29 (1985). doi:10.1063/1.336070.
14. Haug, H. & Koch, S. W. Quantum Theory of the Optical and Electronic Properties of Semiconductors (World Scientific, 2009) https://doi.org/10.1142/7184.

YARIMO‘TKAZGICHLI TERMOELEKTR GENERATORLARI BILAN BIRLASHTIRILGAN TEKIS PLASTINKA PULSATSIYALANUVCHI ISSIQLIK QUVURLARINING ISHLASHI

N.B. Turg‘unova
Andijon mashinasozlik instituti

Qazib olinadigan yoqilg'idan ortiqcha foydalanish jiddiy energiya inqirozi va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keldi. Uglerodning eng yuqori cho'qqisiga chiqish va uglerod neytralligi maqsadlarini amalga oshirish bilan vodorod energiyasi, shamol energiyasi va quyosh energiyasi kabi samarali va toza energiyani rivojlantirishga global talablar tez o'sib bormoqda [1]. Bundan tashqari, energiyani samarali boshqarish ham energiya inqirozini engillashtirishning muhim usuli hisoblanadi. Chiqindilarni issiqlikni qayta tiklash energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishning samarali usuli sifatida [2] barqaror energiya tizimlari bilan qo'shimcha yechim sifatida qaralishi mumkin.

Ko'p miqdorda chiqindi issiqlik resurslarining qayta ishlanishi chiqindi issiqlikni qayta ishlashning zaruriy shartidir. Ma'lumotlarga ko'ra, sanoat chiqindi issiqlik umumiy energiya iste'molining 17-67% ni tashkil qiladi, shundan 60% chiqindi issiqlik qayta tiklanishi va energiya sarfini kamaytirish uchun nazariy jihatdan ishlatilishi mumkin . Chiqindilarni issiqlik resurslari uch darajaga bo'linishi mumkin, ya'ni yuqori haroratli (>650 ^{o}C), o'rta haroratli (650-230 ^{o}C) va past haroratli (<230 ^{o}C) chiqindi issiqlik energiyasi . Umuman olganda, yuqori energiya darajasi tufayli yuqori va o'rta haroratli chiqindi issiqlik energiyasidan foydalanish osonroq bo'ladi. 200 ^{o}C dan past bo'lgan past darajadagi chiqindi issiqlik, chiqindi issiqlikning taxminan uchdan bir qismini tashkil qiladi, shuningdek, katta qayta ishlash salohiyatiga ega . Ammo 200 ^{o}C dan past, ayniqsa 150 ^{o}C dan past bo'lgan past darajadagi chiqindi issiqlikning past eksergiyasi tufayli samarali va iqtisodiy jihatdan qayta tiklanishi juda qiyin [3]. Shunday qilib, past sifatli chiqindi issiqlik energiyasini qanday qilib samarali tarzda olish - hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb muammo.

Energiyani konversiyalash qurilmasi sifatida termoelektr generator (TEG) Zeebek effekti orqali chiqindi issiqlik energiyasini bevosita elektr energiyasiga aylantira oladi. TEG nol emissiya, shovqin yo'qligi, uzoq umr ko'rish, harakatlanuvchi mexanik qismlarning yo'qligi va ixcham tuzilish afzalliklari tufayli keng e'tiborni tortdi. TEG ning termoelektrik konversiya samaradorligi asosan termoelektrik materiallarning sifatiga (ZT) va issiq va sovuq uchlari orasidagi harorat farqiga bog'liq. Yuqori ZTga ega yangi termoelektrik materiallarni tadqiq qilish va ishlab chiqish TEG ning termoelektrik konversiya samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqot nuqtalaridan biridir. Bi_2Te_3 asosidagi material eng etuk tijorat termoelektrik materiallardan biridir, u atrof-muhit haroratida (<150 ^{o}C) qo'llash uchun ko'proq mos ekanligi isbotlangan va uning maksimal ruxsat etilgan ish harorati taxminan 250 ^{o}C. TEGlar fotovoltaik termoelektrik (PV-TE) gibrid tizimlari, quyosh-termoelektrik generatorlar, portativ energiya ishlab chiqarish, chiqindi issiqlikni qayta ishlash va boshqalar kabi ko'plab sohalarda keng qo'llanilishi mumkin. Chiqindilarni issiqlikni qayta ishlash sohasida TEGlarni qo'llash uchun chiqindi issiqlik odatda sanoat chiqindi issiqlik va avtomobil chiqindi chiqindilari issiqlikni o'z ichiga oladi. Lan va boshqalar yoqilg'i tejamkorligiga TEGlarni gibrid elektr transport vositalariga integratsiya qilish orqali yaxshiroq erishish mumkinligini aniqladi. Ma va boshqalar egzoz gazining simulyatsiya qilingan mis kvadrat kanaliga biriktirilgan TEGlarning termoelektrik chiqish ko'rsatkichlarini o'rganib chiqdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tizimning maksimal aniq samaradorligi taxminan 0,7% ni tashkil etdi.

Biroq, past darajadagi xarakteristikalari va chiqarilgan energiya va zarur energiya o'rtasidagi geografik nomuvofiqlik tufayli sanoat chiqindisining ko'p qismini to'g'ridan-to'g'ri qayta tiklash va ishlatish mumkin emas [4]. Bundan tashqari, quyosh-termoelektr generatorlarining konversiya samaradorligi quyosh nurlanishining past intensivligi tufayli ancha past bo'ladi. TEG issiq uchining issiqlik oqimini oshirish uchun issiqlik uzatish moslamasini joriy etish orqali konversiya samaradorligini yanada yaxshilash kerak. Passiv issiqlik uzatish moslamasi sifatida issiqlik trubkasi (IQ) issiqlik uzatilishiga erishish uchun faza o'zgarishiga va ishchi suyuqliklarning uzluksiz aylanishiga tayanadi. Issiqlik trubkasi tashqi quvvatsiz uzoq masofalarga issiqlik uzatish uchun ishlatilishi mumkin va uning samarali issiqlik o'tkazuvchanligi ma'lum bo'lgan har qanday qattiq materiallardan yuqoridir. Elghool va boshqalar sinterlangan issiqlik trubkasi issiqlik moslamasi bilan TEG ulanishining ishlashini o'rganib chiqdi va issiqlik qabul qiluvchining strukturaviy optimallashtirilganidan keyin maksimal samaradorlik 3,3% ekanligini aniqladi. Shittu va boshqalar PV-TE gibrid tizimlarini tekis issiqlik trubkasi bilan yoki bo'lmagan holda ulashning elektr samaradorligini o'rgandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, issiqlik trubkasi joriy etilishi bilan samaradorlik 1,47% ga oshdi. Zhao va boshqalar yanada samarali issiqlik quvurlarini ishlab chiqish tizim samaradorligini yanada oshirish uchun ayniqsa muhimdir.

Pulsatsiyalanuvchi issiqlik trubkasi (PIQ), shuningdek, tebranuvchi issiqlik quviri (TIQ) nomi bilan ham tanilgan, pitili bo'lmagan issiqlik quvurlarining yangi turidir. Geometrik konfiguratsiyaga ko'ra, PIQ odatda ikki turga bo'linadi: kapillyar naychali PIQ va tekis plastinkali PIQ [2]. PIQ kapillyar naychasi ko'p burilishlarga egilgan kapillyar naychadan iborat . Flat-plate PIQ - bu qayta ishlangan serpantin kanallari bo'lgan tekis plastinka. An'anaviy tayoqqa asoslangan issiqlik quvurlari bilan solishtirganda, PIQ oddiy va ixcham tuzilish, arzon narxlardagi va mukammal issiqlik o'tkazish qobiliyatining afzalliklariga ega. Yassi plastinkali PIQ tashqi tekis shakli tufayli, u issiqlik uzatish uchun qulayroq bo'lgan tekis issiqlik manbai bilan yaxshiroq termal aloqaga ega. Bundan tashqari, PIQ kapillyar naychasining quvurli tuzilishi tufayli energiya ishlab chiqarish uchun chiqindi issiqlikni qayta tiklashni qo'llash uchun PIQ kapillyar trubasiga TEGlarni o'rnatishda PIQ sirtini qoplash uchun kanallari bo'lgan qo'shimcha tekis plastinka talab qilinadi, bu esa o'sishiga olib keladi. termal qarshilik. Yassi plastinkali PIQ o'rnatish nuqtai nazaridan PIQ kapillyar naychasining kamchiliklarini to'ldiradi.

Yassi plastinkali PIQ elektron sovutish va chiqindi issiqlikni qayta tiklash kabi ko'plab sohalarda qo'llash istiqbollariga ega. Bundan tashqari, strukturani optimallashtirish dizayni orqali tekis plastinkali PIQ-larning issiqlik uzatish ko'rsatkichlariga tortishish kuchining ta'siri sezilarli darajada zaiflashishi yoki hatto e'tiborga olinmasligi mumkin, ya'ni tekis plastinkali PIQ mikrogravitatsiya va antigravitatsiya sharoitida ham normal ishlashi mumkin, bu har xil chiqindi issiqlik manbalarining yo'nalishi noaniqligi sababli chiqindi issiqlikni qayta tiklash uchun juda muhimdir.

Yassi plastinali PIQ ning afzalliklarini hisobga olgan holda, nazariy jihatdan, chiqindi issiqlikni qayta ishlash va energiya ishlab chiqarish uchun an'anaviy IQ o'rniga tekis plastinali PIQ lardan foydalanish istiqbolliroq. PIQ yoki TEG larning ishlash ko’rsatkichlari keng o‘rganilgan, biroq ularning ulanish tizimining ishlashi o‘zaro ta’sir effektlari tufayli bitta qurilmadan farq qiladi [5]. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, TEGlar bilan birlashtirilgan tekis plastinkali PIQ larning issiqlik va termoelektrik chiqish ko'rsatkichlari bo'yicha bir nechta eksperimental tadqiqotlar mavjud.

Ushbu tadqiqotda PIQ ning issiqlik ko'rsatkichlari doimiy isitish harorati va doimiy isitish quvvati sharoitida har xil bo'lishini hisobga olgan holda, doimiy isitish harorati va doimiy isitish quvvati sharoitida TEG bilan birlashtirilgan tekis plastinka PIQ ning termal va termoelektrik ko'rsatkichlari qiyosiy o'rganildi [6]. Turi, soni va qatlam raqami, ulanish

rejimi, TEGlarni o'rnatish rejimi va sovutish suvi oqimining ulanish tizimining ishlashiga ta'siri batafsil o'rganildi. Va nihoyat, ishlab chiqarilgan elektr energiyasini yorug'lik chiqaradigan diodli (LED) lampalarni haydashda va suv elektrolizi orqali vodorod ishlab chiqarishda qo'llashning maqsadga muvofiqligi o'rganildi.

Eksperimental o'rnatish va protsedurada o'n ikkita parallel to'rtburchaklar kanalli (2 × 3 mm) 6061-T6 alyuminiy qotishma plitasi (100 × 180 × 6 mm) kompyuterning raqamli boshqaruv (CNC) dastgohlari bilan ishlov berilgan. Har bir kanal orasidagi masofa 4 mm. Balandligi 1 mm bo'lgan mos keladigan yopiq pasta boshqa alyuminiy qotishma plastinkasida (100 × 180 × 4 mm) ishlab chiqilgan va ishlangan. Ikkita alyuminiy qotishma plitalari to'rtburchaklar (2 × 2 mm) kanalli tekis plastinka PIQ hosil qilish uchun murvat bilan birlashtirilishi mumkin. Yassi PIQ doimiy isitish quvvati sharoitida ulanish tizimining termal va termoelektrik ko'rsatkichlari issiqlik tekis plastinka PIQ ga qo'llanilganda, bug'lanish qismida ishlaydigan suyuqlik issiqlikni yutadi va bug'lanadi, shu bilan ichki bosimni oshiradi. Hosil bo'lgan pufakchalar yoki bug' tiqinlari bosim farqi ostida kondensatsiya bo'limiga oqadi va issiqlikni chiqaradi va suyuqlikka kondensatsiyalanadi. Keyin suyuqlik og'irlik kuchi yordamida bug'lanish qismiga qaytadi. Shu tariqa evaporatatordan kondensatorga issiqlik uzatish jarayoni tugallanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. M.F. Remeli *et al.”*Experimental investigation of combined heat recovery and power generation using a heat pipe assisted thermoelectric generator system” Energy Convers. Manage.2016

2. Y.H. Luo *et al. “*Modeling and experimental analysis of U-shaped segmented unidirectional heat pipe array cogeneration unit” Case Stud. Therm. Eng. 2021

3. A. M. Kasimakhunova and others. “Photo Thermal Generator of Selective Radiation Structural and Energetic Features.” JAMP. Vol.07 No.06 (2019). DOI: 10.4236 / jamp.2019.76086

4. Kasimakhunova A.M., Turgunova N.B., Research of thermal conductivity and applications of thermoelectric generators in production//Scientific Bullettin of NamSU 2022 № 7 (13.00.00.30)

5. Kasimakhunova A.M., Turgunova N.B., Research of the application of thermoelectric generators on oil-fat combines// Scientific-technical journal (STJ FerPI, 2021, T.24, №6) (05.00.00.20)

6. Turgunova N.B “Investigation of Thermal Conductivity Efficiency and Application of Thermoelectric Generators as Sources of Alternative Energy” Texas Journal of Engineering and Technology. Vol.17 ISSN No: 2770-4491 https://zienjournals.com 2023

YARIMO’TKAZGICHLARDA $p-n$ O‘TISHNING HOSIL BO‘LISHI

I.A. Muminov, A. Axmadjonov
Farg’ona davlat universiteti

Hozirgi kunda elektronika va radiodetallarning asosiy elementlari yarimo‘tkazgich moddalari asosida ishlab chiqariladi. Bunday elementlarni ishlash prinsipi hamda ularda elektron jarayonlarni amalga oshiruvchi qismlar qanday tuzilishga ega ekanligi haqida ushbu maqolada qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Biror yaxlit yarimo‘tkazgich kristalining bir qismida n turdagi, ikkinchi qismida p turdagi o‘tkazuvchanlik sohalarini hosil qilaylik (1-rasm). p va n sohalarning o‘zaro tutashgan chegara qismida erkin elektronlar kovaklarni to‘ldiradi, ya’ni elektron-kovak rekombinatsiyasi yuz beradi. Natijada yarimo‘tkazgichning ushbu qismida zaryad tashuvchilari deyarli bo‘lmagan, xususiyati dielektriknikiga o‘xshash soha hosil bo‘ladi. Bu soha erkin elektronlarni p sohaga tomon, kovaklarni esa n sohaga tomon o‘tishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ushbu soha berkituvchi qatlam deyiladi.



1-rasm.

Berkituvchi qatlamda p turdagi yarimo‘tkazgichga tegishli qismida erkin ko‘cha olmaydigan, manfiy zaryadlangan akseptor atomlari n- turdagi yarimo‘tkazgichga tegishli qismida esa musbat zaryadlangan donor atomlari ichki elektr maydonni (E_{ichki}) hosil qiladi. Ichki elektr maydon kuch chiziqlari n turdagi yarimo‘tkazgichdan p turdagi yarimo‘tkazgichga tomon yo‘nalgan bo‘ladi (1-rasm). Mazkur yarimo‘tkazgichni tok manbaiga ulaylik. Dastlab yarimo‘tkazgichning p sohasini manbaning manfiy qutbiga, n sohasini manbaning musbat qutbiga ulaylik (2-rasm). Bunda elektronlar manbaning musbat qutbiga, kovaklar manbaning manfiy qutbiga tortiladi. Natijada berkituvchi qatlam kengayadi va uning qarshiligi ortadi.



2-rasm

Yarimo‘tkazgich orqali tok deyarli o‘tmaydi. Bunday holat teskari $p-n$ o‘tish deb ataladi. Endi yarimo‘tkazgichning p sohasiga manbaining musbat qutbini, n sohasiga manfiy qutbini ulaylik. Bunda elektronlar tok manbaining manfiy qutbidan itarilib, musbat qutbga ulangan p-sohaga tortiladi. Kovaklar esa musbat qutbdan itarilib, n sohaga tortiladi. Natijada berkituvchi qatlam torayadi, uning qarshiligi kamayadi va undan tok o‘ta boshlaydi (2-rasm). Bunday holat to‘g‘ri $p-n$ o‘tish deyiladi. To‘g‘ri $p-n$ o‘tishda yarimo‘tkazgichning elektr qarshiligi, teskari $p-n$ o‘tishga nisbatan bir necha o‘n, ba’zan bir necha yuz marta kichik bo‘ladi. $p-n$ o‘tishga ega bo‘lgan yarimo‘tkazgichda elektr toki faqat bir tomonlama o‘tishini 3-rasmda ko‘rsatilgan elektr zanjiri yordamida kuzatish mumkin. 3a-rasmda $p-n$ o‘tish to‘g‘ri yo‘nalishda ulangan bo‘lib, zanjirda tok mavjudligini lampochkaning yonishidan aniqlaymiz. 3b-rasmda esa $p-n$ o‘tish teskari yo‘nalishda ulangan bo‘lib, bunda yarimo‘tkazgich orqali tok o‘tmayotganligini lampochkaning yonmaganligidan bilib olamiz. $p-n$ o‘tishli yarimo‘tkazgichlarning elektr tokini bir tomonlama o‘tkazish xususiyatidan yarimo‘tkazgichli asboblarda foydalaniladi.



3a-rasm



3b-rasm

Yarim o‘tkazgichli asboblarning ko‘pchiligi bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichlardan tayyorlanadi. Xususiy xolatda bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgich bir sohasi *p*–turdagi, ikkinchisi esa *n*-turdagi monokristaldan tashkil topadi. Bunday bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichning *p* va *n* – sohalarining ajralish chegarasida hajmiy zaryad qatlami hosil bo‘ladi, bu sohalar chegarasida ichki elektr maydoni yuzaga keladi va bu qatlam elektron – kovak o‘tish yoki *p-n* o‘tish deb ataladi. Ko‘p sonli yarim o‘tkazgichli asboblar va integral mikrosxemalarning ishlash prinsipi *p-n* o‘tish xossalariga asoslangan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. И.С. Андреев, Х.К. Арипов, Ж.Т. Махсудов, Ш.Б. Рахматов. Полупроводниковые приборы многослойной структуры. Транзисторы и тиристоры. Част 1: 1994. 164 с.
2. Киттель Ч. Введение в физику твердого тела. - М.: Наука, 1978, 790 с.
3. Х.К. Арипов, Н.Б. Алимова, З.Е. Агабекова, Ж .Т Махсудов. Аналоговая и интегральная схемотехника. Т.2000.
4. R.Ya.Rasulov, V.R.Rasulov, I.M.Eshboltayev. “Yarimo’tkazgichli nanofizikaning nazariy asoslari” o‘quv qo‘llanma, Farg‘ona 2022.
5. R.Ya.Rasulov, M.A.Mamatova. “Ko’p qatlamli yarim o’tkazgichlarning Volt Amper xarakteristikalari” , Monografiya, Farg‘ona 2021.

YARIMO’TKAZGICHLARNING NOYOB XOSSALARI

I.A. Muminov, M. Muminova
Farg’ona davlat universiteti

Yarimo’tkazgich materiallar o‘zining quyidagi bir qancha hossalari bilan hozirgi zamon elektronikasi, mikroelektronikasi va nanoelektronikasining asosi hisoblanadi:

Yarimo’tkazgich materialining solishtirma qarshiligi harorat oshishi bilan ($0\ K$ dan) eksponensial qonun bilan kamayadi. Masalan, kremniyning harorati $T = 100\ K$ dan $300\ K$ ga oshganda, uning solishtirma qarshiligi qiymati $10^{24} Om \cdot sm$ dan gacha, ya’ni $2 \cdot 10^{5} Om \cdot sm$ karra kamayadi, Shu oraliqda eng yaxshi metall oltinni solishtirma qarshiligi bor yo‘g‘i 17% ortadi. Demak, yarimo’tkazgichlarning elektr xossalarini harorat yordamida juda katta oraliqda boshqarish mumkin ekan. Bu yarimo’tkazgichlarga xos juda noyob xossadir.

Yarimo’tkazgich materiallarning solishtirma qarshiligi kirishma atomlariga o‘ta sezgir bo‘ladi. Misol uchun oltinga 30% mis yoki $InGa$ moddasi qo‘shilsa, uning solishtirma qarshiligi bor yo‘g‘i 3% o‘zgaradi. Shu holda xususiy 1 kg Si ga $0{,}001\ mg$ ya’ni Si dagi atomlar sonidan 10^{9} karra kam bo‘lgan P yoki Sb ni qo‘shadigan bo‘lsak, uning solishtirma qarshiligi karra oshadi. Demak, xona haroratida Si ning solishtirma qarshiligini faqat kirishma atomlar konsentratsiyasi 10^{3} ga oshirish hisobiga uning solishtirma qarshiligi p~$10^{5}\ Om \cdot sm$ dan $p \sim 10^{-3} Om \cdot sm$ ga o‘zgartirish mumkin. Demak, yarimo’tkazgichlarga kirishma elementlari kiritilganda ularning xususiyatlarini keskin o‘zgarishi ham ularning noyob xossaga ega ekanligidan darak beradi.

Yarimo’tkazgich materiallarida metallardan farqli holda 2 xil tok tashuvchilar ya’ni elektron va kovaklar mavjud. Bu degani bitta yarimo’tkazgich materiali asosida elektron o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan n-tur yoki kovak o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan p-tur material olishimiz mumkin. Mana bu xususiyat “Qattiq jismlar elektronikasi,, ga asos bo‘lishiga diod (p-n) va tranzistorlarning kashf etilishiga va hozirgi zamon mikro hamda nanoelektronika paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga asos bo‘ldi. Yarimo’tkazgich materiallarining mana bu o‘ta noyob xossasi insoniyat hayotida texnika sohasi texnik revolyutsiya davrini boshlab berdi.

Yarimo’tkazgich materiallarida metallardan farqli holda 2 xil tok tashuvchilar ya’ni elektron va kovaklar mavjud. Bu degani bitta Yarimo’tkazgich materiali asosida elektron o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan n-tur yoki kovak o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan p-tur material olishimiz mumkin. Mana bu xususiyat “Qattiq jismlar elektronikasi” ga asos bo‘lishiga diod ($p - n$) va tranzistorlarning kashf etilishiga va hozirgi zamon mikro hamda nanoelektronika paydo bo‘lishiga va rivojlanishiga asos bo‘ldi. Yarimo’tkazgich materiallarining mana bu o‘ta noyob xossasi insoniyat hayotida texnika sohasi texnik revolyutsiya davrini boshlab berdi.

Metallarda umuman mavjud bo‘lmagan holat ya’ni, tok tashuvchilarning (elektron va kovaklar) yashash vaqtini boshqarish usuli bilan Yarimo’tkazgichlar asosida umuman yangi turdagi elektron asboblar yaratish imkonini berdi. Bularga; lazerlar, fotoelementlar va boshqalarni kiritish mumkin. Yarimo’tkazgichlarda tok tashuvchilarning yashash vaqtini qiymatini juda katta oraliqda o‘zgarishi ($10^{3} \div 10^{-11} sek$) o‘ta tez ishlaydigan hozirgi zamon hisoblash mashinalari yaratishga sabab bo‘ldi.

Metallarga qaraganda yarimo’tkazgich materiallarini elektrik, optik, magnit xossalari tashqi ta’sirlarga (magnit maydoni, radiatsiya, bosim, yorug‘lik va h.k) o‘ta sezgirdir. Mana bu noyob xossa - texnikada tubdan yangi bo‘lgan asbob va qurilmalarni yaratilishiga sabab

bo‘ladi. Bu hozirgi zamon hisoblash texnikasi, robototexnika va diagnostika sohalarini o‘ta yuqori darajada rivojlanishiga asos bo‘ldi.

Yarimo’tkazgich materiallarni metallardan yana bir farqli xususiyati bu tok tashuvchilar harakatchanligi nafaqat o‘ta yuqori qiymatlarga erishshi balki, harorat hamda nuqsonlarga o‘ta bog‘liqdir.

Yarimo’tkazgich materiallaridagi asosiy kimyoviy bog‘lanish bu kovalent bog‘lanishdir. Yarimo’tkazgich materiallarini tashkil etadigan atomlarning asosiy qismi s va p elektron qobiqlari to‘lmagan bo‘lgan, kristall hosil bo‘lganidan, ulardagi hamma atomlarning tashqi elektron qobiqlari to‘lishi shart. Natijada kristalldagi har bitta atomni tashqi qobig‘ida elektronlar soni 8 taga yetib s^2p^6 holatiga o‘tadi. Bunday bog‘lanishda spinlari bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan 2 ta elektron, ikki atom o‘rtasida umumiy bo‘lgan holda, ikki atomga tegishli. Misol uchun, Si kristallini ko‘radigan bo‘lsak, undagi atomlarning valent elektronlari holati s^1p^3 holatda bo‘lib, bunday atom to‘rt tomondagi qo‘shnilaridan bittadan, qarama-qarshi spinli elektronlarni qabul qilishi bilan, s^2p^6 holatiga o‘tadi.



1 - rasm. Si da elektron qobiqlarning to‘lishi va Si kristalining kovalent bog‘lanishi

Bunday bog‘lanishlar s^1p^3 gibrid bog‘lanishlar deb atash qabul qilingan. Yarimo’tkazgich materiallarida kovalent s^1p^3 bog‘lanish mavjud bo‘lishi uchun kristall shunday atomlaridan tashkil topgan bo‘lishi kerakki, unda kristallni tashkil etgan 2 ta qo‘shni atom valent elektronlarni yig‘indisi 8 ga teng bo‘lishi kerak. Bunday kristallar $Si(s^2p^2)$, $Ge(s^2p^2)$, $Sn(s^2p^2)$, $C(s^2p^2)$ yoki III-guruh elementlari Ga, In(s^1p^2) va V-guruh elementlari $As, Sb, P(s^2p^3)$, bunda bitta elektron V- guruh to‘la atomlaridan III-guruh atomlariga o‘tadi va natijada III va V- guruh atom elektronlar soni 4 tadan ya’ni s^1p^3 bo‘ladi yoki II-guruh elementlari $Gd, Zn(s^2p^2)$ va VI-guruh elementlari S,Se,Te(s^2p), bu holatda VI-guruh elementlari (s^2p^4) dan 2 ta elektron II-guruh elementlari (s^2) ga o‘tadi va natijada har ikkala atomga ham s^1p^3 holatlari vujudga keladi hamda s^1p^3 tetroedrik kovalent bog‘lanish hosil qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Шалимова К.В. «Физика полупроводников». М.2010.
2. Назиров Э.Н., Тешабоев А.Т., Назиров Д.Э. “Яримўтказгич терминлари”. ЎзМУ. 2003.
3. Кардона М., Петер Ю. «Основы физики полупроводников». М. 2002.
4. http://irc/s.ru/Library/Method/index.html
5. http://www/college.ru/physics/index.

YARIMO’TKAZGICHLI NANOIPLARDA SHTARK EFFEKTI

A.B. Davlatov, A.A. Abdukarimov, M.X. Xakimjonova
Namangan davlat universiteti

Hozirgi kunda kichik o‘lchamli kvant qatlam, kvant ip va kvant nuqtalarda tok tashuvchilar tabiatini bilish dolzarb hisoblanadi. Bir o’lchovli yarimo’tkazgichli konstruksiyalarni o’rganish ishlab chiqarish texnologiyasi jadal rivojlanib borayotganligi sababli katta qiziqish uyg’otmoqda, chunki turli xil optik va elektron asboblarlar uchun potensial qurilish bloklari, masalan nanometr miqyosidagi lazerlar, yorug’lik diodlari, maydon-effektli tranzistorlar, fotodetektorlar va quyosh elementlari ishlab chiqilmoqda. Ushbu noyob xususiyatlarni nanomaterialning cheklangan o’lchamlaridagi elektronlarning cheklangan harakati bilan bog’lash mumkin. Bunday asboblarni aniqlik bilan ishlashini ta’minlash-nanotuzilmalardagi tok tashuvchilar tabiatini bilishni talab etadi.

Yarimo’tkazgichli nanoiplardagi energiya satxlari va to’lqin funksiyalarini aniqlash uchun Shredinger tenglamasini yechamiz. Bitta zarraning statsionar holati uchun uch o‘lchovli Dekart koordinatalar fazosida Shredinger tenglamasi quyidagicha yoziladi.

$$-\frac{\hbar^2}{2}\left(\nabla\frac{1}{m^*(x,y,z)}\nabla\right)\psi(x,y,z)+V(x,y,z)\psi(x,y,z)=E\psi(x,y,z) \tag{1}$$

Effektiv massani hisobga olganda bitta zarraning statsionar holati uchun ikki o‘lchovli Dekart koordinatalar fazosida Shredinger tenglamasi quyidagicha yoziladi.

$$-\frac{\hbar^2}{2}\left(\frac{\partial}{\partial x}\frac{1}{m(E_x)}\frac{\partial}{\partial x}+\frac{\partial}{\partial y}\frac{1}{m(E_y)}\frac{\partial}{\partial y}\right)\psi(x,y)+V(x,y)\psi(x,y)=E_{(x,y)}\psi(x,y) \tag{2}$$

Potensial energiya quyidagicha ifodalanadi

$$V(x,y)=\begin{cases}V, & (x,y)\in(-\infty,-L_x/2)\times(-\infty,-L_y/2)\cup(L_x/2,\infty)\times(L_y/2,\infty)\\ 0, & (x,y)\in(-L_x/2,L_x/2)\times(-L_y/2,L_y/2)\end{cases} \tag{3}$$

Elektronlar effektiv massalari

$$m(x,y)=\begin{cases}m_2, & (x,y)\in(-\infty,-L_x/2)\times(-\infty,-L_y/2)\cup(L_x/2,\infty)\times(L_y/2,\infty)\\ m_1, & (x,y)\in(-L_x/2,L_x/2)\times(-L_y/2,L_y/2)\end{cases} \tag{4}$$

Elektr maydon kuchlanganligi quyidagicha ifodalanadi

$$F(x)=\begin{cases}F\cos\alpha/\varepsilon_1, & x\in(-\infty,-L_x/2)\cup(L_x/2,\infty)\\ F\cos\alpha/\varepsilon_2, & x\in(-L_x/2,L_x/2)\end{cases}$$
$$F(y)=\begin{cases}F\sin\alpha/\varepsilon_1, & y\in(-\infty,-L_y/2)\cup(L_y/2,\infty)\\ F\sin\alpha/\varepsilon_2, & x\in(-L_y/2,L_y/2)\end{cases} \tag{5}$$

Ko’plab yarimo’tkazgichli birikmalarda o’tkazuvchanlik va valent zonalari zaryad tashuvchilar energiyasi uchun noparabolik dispersiya qonuniga ega bo’ladi. Zonaning noparabolikligini hisobga olish uchun Keyn nazariyasidan [1] foydalaniladi. Biz elektronlar effektiv massalarini energiyaga bog’liqligi uchun Nelson modelidan foydalanamiz [2-5]. Nelson modeli noparaboliklik effektini ifodalashda effektiv massalarning energiyaga bog’liqligi uchun juda qulay va sodda hisoblanadi.

$$m(E)=m_i\left(1+\alpha(E-V)\right),\qquad \alpha=\frac{1}{E_g}\left(1-\frac{m_i}{m_0}\right)^2 \tag{6}$$

Shredinger tenglamasi quyidagicha ko’rinishni oladi.

$$-\frac{\partial^2\psi(x)}{\partial x^2}\frac{1}{(1+2\alpha(x)(E_x+F(x)x-V(x)))}+$$
$$+\frac{\partial\psi(x)}{\partial x}\frac{2\alpha(x)F(x)}{(1+2\alpha(x)(E_x+F(x)x-V(x)))^2}=\frac{2m}{\hbar^2}(E_x+F(x)x-V(x))\psi(x) \quad (7)$$
$$-\frac{\partial^2\psi(y)}{\partial y^2}\frac{1}{(1+2\alpha(y)(E_y+F(y)y-V(y)))}+$$
$$+\frac{\partial\psi(y)}{\partial y}\frac{2\alpha(y)F(y)}{(1+2\alpha(y)(E_y+F(y)y-V(y)))^2}=\frac{2m}{\hbar^2}(E_y+F(y)y-V(y))\psi(y)$$

Elektronlar energiya satxlari va to’lqin funksiyalari quyidagicha topiladi

$$E_{(x,y)}=E_x+E_y, \qquad \psi(x,y)=\psi(x)\psi(y) \quad (8)$$

1-rasmlarda o’lchamlari 10x10 nm va 2-rasmlarda o’lchamlari 15x15 nm va bo’lgan nanoiplarga 0° va 45° burchak ostidan qo’yilgan elektr maydoni kuchlanganligini 0 dan $3\cdot10^8$ V/m gacha orttirilishida (1,1) va (1,2) energiya satxlarni parobolik va noparabolik dispersiyali holatlar uchun o’zgarishi tasvirlangan. Elektr maydon kuchlanganligini orttirib borsak, energiya satxlari pasayib borishini ko’rishimiz mumkin. 3-4-rasmlarda nanoip o’lchamlarini 5x5 nm dan 15x15 nm gacha o’zgarishida 0, $2\cdot10^8$ V/m va $3\cdot10^8$ V/m bo’lgan hollar uchun (1,1) va (1,2) energiya satxlarni noparabolik dispersiyali holatlar uchun o’zgarishi tasvirlangan. Nanoip chiziqli o’lchamlarining ortishi elektr maydoni ta’sirini orttirishini ko’rishimiz mumkin.



(1,1)



(1,2)

1-rasm. O’lchamlari 10x10 nm bo’lgan nanoiplarda elektronlar energiya satxlariga elektr maydon kuchlanganligini ta’siri. (1,1) satx uchun parabolik va noparabolik holatlar.



(1,1)



(1,2)

2-rasm. O’lchamlari 15x15 nm bo’lgan nanoiplarda elektronlar energiya satxlariga elektr maydon kuchlanganligini ta’siri. (1,1) satx uchun parabolik va noparabolik holatlar.



3-rasm. Nanoiplarda noparabolik dispersiyali (1,1) satx energiyasini chiziqli o’lchamlarga bog’liqligi. Turli elektr maydonlar uchun.



4-rasm. Nanoiplarda noparabolik dispersiyali (1,2) satx energiyasini chiziqli o’lchamlarga bog’liqligi. Turli elektr maydonlar uchun.

5-rasmda 10x10 nm o’chamdagi nanoipda α=45° bo’lganda, elektr maydon kuchlanganligi F=0 va F=2000 kV/sm bo’lgan holatlar uchun birinchi 4 ta satxda elektronlar topilish extimolliklari 2D grafiklari tasvirlangan.

	F=0	α=45°, F=2000 kV/sm
(1,1)		
(2,1)		
(2,2)		

5-rasm. InP/InAs/InP-nanoiplarda turli satxlarda elektronlar topilish extimolliklari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kane E. Band structure of indium antimonide. J. Phys. Chem. Solids. **1**, 249 (1957); doi: 10.1016/0022-3697(57)90013-6.
2. Nelson D.F., Miller R.C., Kleinman D.A. Band nonparabolicity effects in semiconductor quantum wells. Physical Review B, 35(14), (1987), 7770–7773. doi:10.1103/PhysRevB.35.7770.
3. Gulyamov G., Davlatov A.B., Inoyatov S.T., Makhmudov S.A. Calculation of the energy levels and wave functions of electrons in nanowires by the shooting method. Journal of Applied Science and Engineering, **25**. 1, 31-36, (2022). https://doi.org/10.6180/jase.202202_25(1).0004.
4. Gulyamov G., Gulyamov A.G., Davlatov A.B., Juraev Kh.N. Energy levels in nanowires and nanorods with a finite potential well. Advances in Condensed Matter Physics. **2020**. 4945080, 12 p. (2020). https://doi.org/10.1155/2020/4945080.
5. Gulyamov G., Gulyamov A.G., Davlatov A.B., Shahobiddinov B.B. Electron energy in rectangular and cylindrical quantum wires. Journal of Nano- and Electronic Physics. **12**. 4, 04023-1-5 (2020). https://doi.org/10.21272/jnep.12(4).04023.
6. Ekenberg U. Nonparabolicity effects in a quantum well: Sublevel shift, parallel mass, and Landau levels. Physical Review B, 40(11), 7714–7726(1989). doi:10.1103/physrevb.40.7714.

YARIMO’TKAZGICHLI NANOIPLARDAGI ELEKTRONLAR GAZI ENTROPIYASI.

A.B. Davlatov[1*], D.R. Urinboev[2], Sh.A. Abduqodirova[1]
[1]Namangan davlat universiteti
[2]Namangan muxandislik texnologiyalar instituti

So‘nggi yillarda nanoipli tuzilmalar ko‘pchilikning e’tiborini tortdi chunki, nanipli lazer qurilmalarini ishlab chiqarish va qo‘llashda istiqbolli yutuqlarga erishildi. Bu, birinchi navbatda, ularning noyob transport xususiyatlari, ya’ni, yuqori elektron harakatchanligi, shuningdek, yaxshilangan optik xususiyatlari bilan bog‘liq. Shunday qilib, fundamental va amaliy fizika nuqtai nazaridan nanoiplarda tok tashuvchilar xususiyatlarini tushunishga qiziqish ortib bormoqda.

Termodinamik xususiyatlarning asosiy ifodalari zarrachalarning impulsi yoki energiyasining xos qiymatlari bo‘yicha cheksiz yig‘indilarga asoslanadi va bu yig‘indilar makroskopik termodinamikada integrallar bilan almashtiriladi.

Entropiya termodinamikaning va aslida butun fizikaning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, uni tushunish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki uning bir nechta ta’riflari, tushuntirishlari va hatto hosilalari mavjud. Entropiyani bilish orqali, yangi materiallarning termodinamikasini, issiqlik uzatishni, energetik tartibsizlikni, termoelektrik va termomagnit xususiyatlarini tushuntirish mumkin.

Nanoiplarda kuzatiladigan kvant effektlar temperaturaga va nanoip o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi va energiya holatlar zichligi, entropiya, issiqlik sig‘imi, elektr o‘tkazuvchanlik, issiqlik o‘tkazuvchanlik va hakazo kattaliklar ossilatsion tabiatga ega bo‘ladi. Nanoip o‘lchamlari ortganda va temperatura ko‘tarilganda kvant effektlar yo‘qolib boradi [1]. [2] ishlarda ikki o‘lchamli elektron gazi to‘la energiyasidan foydalanib entropiya va issiqlik sig‘imi ifodalangan va haroratga bog‘liq ravishda o‘zgarishi nazariy tahlil qilingan. Dirak materiallari uchun entropiya hisoblangan [3]. Magnit maydonida joylashgan ikki o‘lchamli elektron gazi termodinamikasi o‘rganilgan [4]. Yarimo‘tkazgichli nanoiplarda termodinamik potensial [5] o‘rganilgan. Yarimo‘tkazgichli nanoiplarda elektronlar gazi entropiyasi nazariy hisoblangan va tahlil qilingan [6]. Magnit maydonidagi nanoiplarda elektronlar gazi entropiyasi o‘rganilgan [7]. Nanoiplarda termoelektrik kattaliklar tabiati o‘rganilgan [8]. [9] ishda hajmiy yarimo’tkazgichlardagi fermionlar va bozonlar uchun termodinamik potensial va entropiya ifodalari keltirilgan.

Fermi-Dirak va Boze-Eynshtayn statistik funksiyalariga bo’ysunuvchi Low dimensional gazlarda kimyoviy potensialni haroratga bog’liqligi nazariy o’rganilgan [10]. Low dimensional ideal Fermi gazlarida kimyoviy potensialni haroratga bog’liqligini termodinamik potensialdan foydalanib topilgan [11].

Nanoiplardagi elektronlar gazi termodinamik potensiali. Ideal elektron gazi uchun termodinamik potensial quyidagicha bo’ladi [9].

$$\Omega = -k_0 T \sum_k \ln\left(1+\exp\left(\frac{\mu - E_k}{k_0 T}\right)\right) \tag{1}$$

(1) tenglamadagi yig’indini quyidagi ifodadan foydalanib [9], integralga o’tkazib olamiz.

$$\sum_k \phi(k) \Rightarrow \frac{V g_0}{(2\pi)^3}\int \phi(\mathbf{k}) d\mathbf{k} \tag{2}$$

Bunda, $g_0 = 2s+1$, $s = 1/2$ – elektron sipini, V – hajm. U holda (1) tenglama quyidagi ko’rinishni oladi.

$$\Omega = -k_0 T \frac{V g_0}{(2\pi)^3} \int \ln\left(1+\exp\left(\frac{\mu - E_k}{k_0 T}\right)\right) d\mathbf{k} \tag{3}$$

Dekart koordinatalar sistemasida $d\mathbf{k} = dk_x dk_y dk_z$ munosabat o’rinli. U holda (3) tenglama bir o’lchovli elektron gazi uchun quyidagicha ko’rinishni oladi:

$$\Omega = -k_0 T \frac{L_z g_0}{2\pi} \int_{-\infty}^{\infty} \ln\left(1+\exp\left(\frac{\mu - E_k}{k_0 T}\right)\right) dk_z \tag{4}$$

Bunda, L_z – nanoip uzunligi. Cheksiz chuqur potensial o’rali yarimo’tkazgichli nanoipda energiya spekri quyidagicha ifodalanadi [12-14].

$$E(1+\alpha E) = \frac{\hbar^2 k_z^2}{2m} + E_n + E_l = \frac{\hbar^2 k_z^2}{2m} + E_{n,l}$$

$$dk_z = \sqrt{\frac{2m}{\hbar^2}} \frac{1+2\alpha E}{\sqrt{E(1+\alpha E) - E_{n,l}}} dE \tag{5}$$

Biz elektronlar effektiv massalarini energiyaga bog’liqligi uchun Nelson modelidan foydalanamiz [15]. Elektronlar dispersiyasining noparaboliklik darajasi α – quyidagiga teng bo’ladi.

$$\alpha = \frac{1}{E_g}\left(1 - \frac{m_i}{m_0}\right)^2$$

(5) tenglamani hisobga olsak (4) tenglamada quyidagicha ko’rinishni oladi.

Pd–Ba ga bir xil energiya va dozali Ba^+ ionlarini implantatsiya qilishda (1-rasm) klaster fazalari bilan birga Ba atomlari bilan boyitilgan, kengligi 2-3 mkm bo‘lgan chiziqlar xam hosil bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, Pd –Ba holatida mexanik tozalanish mavjudligi ion bombardimoni paytida aralashmalarning qayta taqsimlanishiga olib keladi. Dozani $6*10^{16}sm^{-2}$ gacha oshirilganda huddi Pd–Ba kabi Pd da xam kristall plyonkalarga xos xususiyat bulgan aniq qirra va o‘lchamlari 5-10 mkm bo‘lgan dag‘al donador dog‘lar paydo bo‘ladi. Donalarning yuzasi to‘lqinli bo‘lib, bu ichki kuchlanish yuqoriligini ko‘rsatadi. OES spektrlarining tahlili bu joyda Pd_2Ba va PdBa tipidagi birikmalarning to‘plami borligini ko‘rsatadi. Bu dog‘larning qalinligi 40-50Å.

Yuqori dozali ionlarni implantatsiya qilish ta’sirida kristall tuzilishga ega bo‘lgan birikmalarni shakllantirishning mexanizmi, bu materialning erishiga olib keladi. Ko‘rinib turibdiki, kvazi kristalli xususiyatlarning hosil bo‘lish samaradorligi namunaning kaskad mintaqasida ajralib chiqadigan energiya zichligiga mutanosib bo‘ladi. Dozaning oshishi Pd-Ba yuzasidagi mikrostrukturalarning o‘zgarishiga olib kelmadi, balki faqatgina ayrim klaster fazalari chegaralarining bir biriga mos kelishi kuzatildi. Keyingi tadqiqotlar natijasi $D=(4-6)*10^{16}sm^{-2}$ doza to‘yinish dozasi ekanligini ko‘rsatdi. Pd va Ba, Ba va O atomlari orasidagi birikmalarning hosil bo‘lishi bariy ionlari bilan implantatsiya qilingan Pd va Pd-Ba uchun oje-elektronlarning spektrida aniqroq namoyon bo‘ladi. Yuqori vakuumda va kislorod atmosferasida ($P=10^{-4}$ Pa) Pd ni $E_0=0,5$ keV va $D=6*10^{16}sm^{-2}$ dozada Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilish 2-rasmda ko‘rsatilgan. Yaxshi tozalangan Pd spektrida energiyalari 32, 45, 81 eV bo‘lgan palladiyning oje-cho‘qqilari aniqlandi. Ma’lumki, past intensivlikdagi S va O oje-cho‘qqilari spektrining yuqori energiyali qismida ham aniqlangan. Ularning umumiy konsentratsiyasi 1-1,5 at.% dan oshmaydi. Yuqori vakuumda implantatsiya qilingandan keyin Pd ning kichik energiyali oje-piklari yo‘qolishini va 37, 46, 55, 62 va 75 eV energiyaga ega

yangilari paydo bo‘ladi. Bunda 37 va 46 eV lar Pd va Ba ga tegishli ekani, qolganlari esa Ba ga tegishlidir.



1-rasm. E_0=1 keV energiyada va turli dozalarda (D,sm^{-2}) Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilingan Pd (a,b), Pd-Ba (v,g) yuzalarining REM tasviri: a-$6*10^{14}$; v-$5*10^{15}$; g-$6*10^{16}$.



2-rasm. Yuqori vakuumda (1) va kislorod atmosferasida (2) (P=10^{-4} Pa) Pd ni E_0=0,5 keV va D=$6*10^{16}sm^{-2}$ dozada Ba^+ ionlari bilan implantatsiya qilish

Taqqoslash shuni ko‘rsatdiki, Pd va Pd-Ba ning oje- spektri Ba^+ ionlari bilan yuqori dozada implantatsiya qilingandan so‘ng xam bir biridan farq qilmaydi. Bu shuni ko‘rsatdiki,

ikkala holatda ham deyarli bir xil miqdordagi Ba atomlari sirtga yaqin joyda to‘planadi va Pd hamda Ba komponentlari orasidagi bog‘lanish tabiati ham bir xil. Shuning uchun,bu ion birikgan namunalarning emissiya hususiyatlari bir biridan juda kam farq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дюбуа Б.Ч. Сытник А.Я. // Электронная техника. Сер. 1.Электроника СВЧ. – 1976. – Вып.6. –с.68-71.

2. Ташатов А.К., Умирзаков Б.Е., Нормурадов М.Т. // Радиотехника и электроника. - 1989, -Т.34, №4. –с.885-887.

ION IMPLANTATSIYASI PAYTIDA Si YUZASIDA SiO_2 NANOKRISTALLLARINI HOSIL QILISH XUSUSIYATLARI

A.Q. Tashatov, Q.T. Dovranov, B.Z. Nuriddinov
Qarshi davlat universiteti

Hozirgi vaqtda kremniy oksidi plyonkalari va ularga asoslangan tizimlar elektronika sanoatida va energetikaning turli sohalarida, ayniqsa toza Si va uning birikmalari ishlab chiqarishda, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash uchun katalizatorlar ishlab chiqarishda, yorug‘lik filtrlarida, sensorlarda va organik qo‘yosh elementlarida keng qo‘llash muxim axamiyatga egadir. Bu jihatdan, ion implantatsiya va yuqori vakuumli termodiffuziya usullaridan foydalanib kremniyning qalinligi va stexiometrik tarkibi bir xil bo‘lgan nanoo‘lchamli oksidlarini olish va ularning elektron tuzilishini, emission va optik xossalarini o‘rganish hozirgi zamon elektronikasining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Nano- va optoelektron qurilmalarni yaratish uchun Si va SiO_2 asosidagi nanoo‘lchamli va ko‘p qatlamli tizimlar asos bo‘lib hisoblanadi. Xususan, nanoo‘lchamli SiO_2/Si geterostrukturalar yuqori chastotali tranzistorlar, integral sxemalar, mikrosxemalar va quyosh elementlarini yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va yangi fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan nanoo‘lchamli strukturalarning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda [1,2].

Ion implantatsiyasidan oldin Si yuzasi 10÷12 soat davomida T = 1200÷1300 K gacha qizdirilgan va impulsli T = 1500 K da qizdirilgan holda tozalangan. Kislorod atomlari metall tirqish orqali qurilmaga kiritilgan. Ion manbai ≈ 10^{-2} Pa kislorod bosimida ishlagan, asbobning o'lchash qismidagi bosim esa ≈ 10^{-6} Pa dan oshmagan. Nishondagi ion oqimining zichligi $(1\div10)\cdot10^{-6}$ A/sm^2 ga teng. Nishondagi ion nurining diametri 1,5÷2 mm ni tashkil etadi. Namuna sifatida diametri ∼10 mm va qalinligi 1 mm bo'lgan disklar shaklidagi Si (111) n - tipidagi namunalar ishlatilgan.

Qalinligi ≈ 50 Å bo'lgan uzluksiz SiO_2/Si (111) plyonkasi hajmiy chuqurligida kislorod atomlarining taqsimlanish profilini 1- rasmda ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, SiO_2 - Si o'rtasida qalinligi 40 - 50 Å bo'lgan o'tish qatlami hosil bo'ladi, bu erda kislorod atomining konsentratsiyasi chuqurlik bilan monoton ravishda kamayadi. O'tish qatlamining katta qalinligi, panjara parametrlaridagi keskin farq bilan izohlanadi Si (Si = 5,43 Å) va SiO_2 (SiO_2 = 7,13 Å).



1- rasm. SiO_2/Si (111) plyonkasi chuqurligida kislorod atomlarining taqsimlanish profillari.

Sof Si (111) va SiO_2/Si nanoplyonkalarining fotoelektron spektrlari 2-rasmda hv = 10,8 va 21,2 eV da olingani keltirilgan. Valentlik zonasining tepa qismi va Fermi sathining holati ishlatilgan namunalar bilan birga yuqori vakuumli qurilmaga joylashtirilgan sof Pd ning E_F sathiga nisbatan aniqlandi. Ko'rinib turibdiki, barcha egri chiziqlar aniq nozik tuzilishga ega. Sof Si uchun, asosiy cho'qqilarning mavjudligini elektronlarning sirt holatlaridan, shuningdek, Si valentlik elektronlarining 3p va 3s holatlaridan qo'zg'alishi bilan izohlash mumkin. Kremniy oksidi holatida maksimal xususiyatlari birikma element atomlari va Si namunasining valentlik elektronlarining elektron holatlarining gibridlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin [3]. 1 va 2 spektrlarni solishtirish shuni ko'rsatadiki, Si holatida UVES hv = 10,8 eV da valentlik elektronlari holatlari zichligi taqsimotini hv = 21,2 eV ga qaraganda yaxshi aks etadi. Buning sababi shundaki, yarimo'tkazgichlar va metallar holatida kvantlar energiyasining 20÷25 eV gacha ko'tarilishi ikkilamchi elektronlarning paydo bo'lishiga olib keladi, shuning uchun fotoelektronlarning spektrlari sezilarli darajada o'zgaradi. 1-jadvalda Si va SiO_2 ning fotoelektronlar spektrida cho'qqilarni hosil bo’lish mexanizmlari, soha energiya parametrlari va kristall panjara doimiylari keltirilgan.



2-rasm. Qalinligi d ≈ 50 Å bo'lgan Si (1, 2 holatlari) va SiO_2 nanokristalllarining (egri 3) fotoelektron spektrlari: 1 - 10,8; 2 - 21.2.

1-jadval.

Si va SiO_2 plyonkalarining xususiyatlari va kristall panjara parametrlari

Tadqiqot ob’ekti	Cho’qqi				Zona parametrlari, eV				a, Å
	A	B	C	D	E_V	E_F	E_g	χ	
Si	3p +	3p	3s+3p	3p	5,1	4,7	1,1	4	5,43
SiO_2	2p(O)+ 3p(Si)	2p(O)+ 3p(Si)	2p(O)+ 3p(Si)	2p(O)+ 3s(Si)	9,1	4,5	8,9	0,1-0,2	polikristall

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, SiO_2 nanoplyonkalarining taqiqlangan zonasining kengligi ~9 eV ni tashkil qiladi, bu esa SiO_2 polikristallari uchun xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergashov Y.S., Tashmukhamedova D.A., Rabbimov E. // Journal of Surface Investigation. X-ray, Synchrotron and Neutron Techniques. -Russia, 2015, -Vol. 9,№2,-P.350–354. © Pleiades Publishing, Ltd.

2. Болтаев Х.Х., Ташмухамедова Д.А., Умирзаков Б.Е. //Поверхность. Рентгеновские, синхротронные и нейтронные исследования.2014. №4. с.24–29.
3. Ergashov E. S., Isakhanov Z. A., and Umirzakov B. E. //Technical Physics, 2016, Vol. 61, No. 6, -P.953–955.

Nb^+ IONLARI BILAN IMPLANTATSIYA QILINGAN Mo (111) NING SIRTIY TARKIBI VA ELEKTRON TUZILISHI

A.Q. Tashatov, S.N. Eshboboyev, N.R Xolmuminov
Qarshi davlat universiteti

Hozirgi vaqtda dunyoda molibden plyonkalari va ularga asoslangan tizimlar elektronika sanoatida va energetikaning turli sohalarida, ayniqsa toza Mo va uning qotishmalarini ishlab chiqarishda, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlash uchun katalizatorlar ishlab chiqarishda, yorug‘lik filtrlarida, sensorlarda va organik qo‘yosh elementlarida keng qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Bu jihatdan, ion implantatsiya usulidan foydalanib molibdenning elektron tuzilishini, emission va optik xossalarini o‘rganish hozirgi zamon elektronikasining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda yangi elektron qurilmalar, jumladan quyosh elementlarini yaratishda, nanoo‘lchamli ko‘pkomponentli qatlamlar tizimlarini olish va ularning elektron, optik va emissiya hossalarini o‘rganish bilan bog‘liq keng qamrovli fundamental va amaliy tadqiqotlar olishib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Belgilangan fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan nanoo‘lchamli ko‘p qatlamli strukturalarni yaratish ilmiy va amaliy axamiyatga ega. Biroq hozirgi vaqtgacha molibden asosida nanoo‘lchamli fazalari va qatlamlari olinmagan va ularning fizik kimyoviy xususiyatlari o‘rganilmagan. Shuning uchun ushbu magistrlik dissertatsiya ishida ko‘rsatilgan dolzarb muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan.

Yarimo'tkazgich va dielektrik plyonkalarning yuzasida va yuzasiga yaqin joyda yaratilgan nano o'lchamdagi tuzilmalar mikro, opto- va nanoelektronikaning yangi asboblarini yaratish istiqbollariga erishgan. Turli elementlarning nano o'lchamdagi fazalariga ega bo'lgan issiqlikka chidamli metallar ko'plab elektron texnika asboblarida, xususan vakuum texnologiyasi va o'ta yuqori chastotali asboblarda keng qo'llaniladi [1-3].

Issiqlikka chidamli metallar yuzasida yaratilgan yarimo'tkazgichlarning nano o'lchamdagi plyonkalari katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu plyonkalar turli xil optik va elektron qurilmalarda, quyosh panellarida va yorug'likka sezgir qurilmalarda ishlatiladigan ko'p qatlamli geterostrukturalarni ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Ushbu ishda Ba^+ ionlarini implantatsiya qilish orqali Mo monokristalining sirt sohasida yaratilgan nano o'lchamdagi tuzilmalarning tarkibi va elektron xossalari o'rganilgan.

Ion implantatsiyasidan oldin Mo namunalari T= 2200 K da 50-60 soat davomida qizdirilgan va 2400 K da esa qisqa muddatli impulsli qizdirilgan. Shu bilan birga, uglerodning sirtiy konsentratsiyasi 1 -2 at.% dan oshmadi. Ba'zi hollarda sirtdan ugleroddan to'liq qutilish uchun kislorod atmosferada qizdirish bilan amalga oshirildi ($P_{O2} = 10^{-4}$ Pa). D = $3 \cdot 10^{14}$ sm^{-2} da E_0 = 3 keV li niobiy ionlarining implantatsiyasidan so'ng olingan Mo ning Oje spektrlarida asosan uglerod atomlarining intensiv cho'qqisi va Mo taglikning zaif cho'qqilari kuzatildi. Namunani T=1000 K da qizdirgandan so'ng, Oje spektrida 10,8 va 16,9 eV energiyali asosiy Mo cho'qqilari va Nb cho'qqilari aniqlandi (rasm-1). T = 1200 K da uglerod cho'qqisi yo'qoladi va Nb cho'qqilarining intensivligi oshadi. Implantatsiya qilingan niobiy atomlarining maksimal sirtiy kontsentratsiyasiga namunani 1350-1400 K gacha qizdirgandan so'ng erishildi. Kristalning keyingi qizdirilishi (1400 K dan katta) niobiyning sirtiy konsentratsiyasining pasayishiga olib keladi. Mo(111) da Nb atomlarining chuqurlik bo'yicha taqsimlanishini aniqlash uchun kristall yuzasini argon ionlari bilan qatlamma-qatlam yemirish amalga oshirildi. Amaldagi oqim zichligi va ionlarning energiyasi bilan E_r = 1 keV ~6-7 daqiqada bitta Mo va Nb qatlamlari olib tashlandi. Kristall yuzasidan ~10 atom qatlami olib tashlangandan so'ng, Nb atomlarining kontsentratsiyasi ~1 at.%. ga kamaydi. Miqdoriy

tahlillashlar elementlar sezgirlik omillari usuli bilan amalga oshirildi. Xuddi shu sirtni qayta ishlash rejimlarida fotoelektronlarining kvant chiqish spektral bog'liqliklar tahlil qilingan, Mo (111) sirtini niobiy ionlari bilan implantatsiyadan oldin va keyin tekshirilgan kristallarning fotoelektronlari (FKCh) va fotoemissiya chiqish ishining qiymatlari hisoblab chiqilgan. Agar Mo(111) uchun implantatsiyadan oldin $e\varphi_{(111)} = 4{,}52 \pm 0{,}02$eV bo'lsa, implantatsiyadan keyin bu qiymat $e\varphi_{(111)} = 4{,}42 \div 4{,}43$ eV ga teng bo’ladi, ya'ni. chiqish ishining ~0,1 eV ga pasayishi kuzatiladi.



1-rasm. Nb^+ ionlari bilan legirlangan Mo (111) ning D = $3 \cdot 10^{14}$ ion·sm^{-2} dozasida E_0= 3 keV olingan Oje spektri.

Fotoelektronlarning energiya taqsimlanish egri chiziqlari $(2–4) \cdot 10^{14}$ion·sm^{-2} dozali va E_0= 3 keV energiyasi bilan niobiy atomlari implantatsiyasidan oldin va keyin Mo(111) yuzasidan olingan. Shu bilan birga, element sezgirligi usuli bilan hisoblangan niobiyning sirt konsentratsiyasi 2–3 at.%. ni tashkil etdi. Implantatsiya qilingan Mo(111) kristalli uchun fotoelektron spektrlarni 2-rasmda $h\nu$ = 8,4 ev da keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, 8,4 eV fotonlari energiyasida Mo(111) yuzasidan olingan fotoelektronlarning spektrlarida 0,8; 1,4; 3,1; 4,2 eV (egri chiziq 1) energiya qiymatlarida to'rtta maksimum mavjud. Ko'rsatilganidek $h\nu$ = 10 eV da Fermi sathidan pastga yana ikkita – 3,8 и 4,5 eV maksimumgacha bo’lgan pik sathidan paydo bo'ladi. Fermi sathidan past bo'lgan -0,5 eV va -1,4 eV energiyali A va B cho'qqilarining holati foton energiyasiga bog'liq emas. B cho'qqisi energiya qiymati bo'yicha 0,2 ev ga siljiydi. Qizdirishdan keyin T =1200 K (egri 2) va T = 1400 K (egri 3) 0,5 eV; 1,4 eV; 2,5 eV; 2,9 eV va 4,5 eV Fermi sathidan past bo'lgan sohalarda bir qator xususiyatlar kuzatiladi. Sof molibdendan farqli o'laroq, N(E) egri chizig'i energiya sohasida qiymati 4 – 4,5 eV ga ega edi va T =1400 K da qizdirilgandan so'ng, bu maksimal intensivlikning pasayishi kuzatildi. Xuddi shu rasmda sof monokristall Mo(111) uchun fotoelektron spektri ko'rsatilgan (egri chiziq 1). Ushbu uchta egri chiziqni taqqoslab, quyidagilarni aytishimiz mumkin, 1,4 ev da B cho'qqisi niobiyning elektron holatlarining zichligi bilan bog'liq ko'rinadi, chunki $h\nu$ = 10 eV da fotoelektron spektrlarida bu qiymat holati o'zgarmagan. Biz A va B cho'qqilarini sof Monokristal Mo(111) uchun to'g'ridan-to'g'ri optik o'tishlar bilan bog'laymiz. Shunday qilib, sof Mo(111) uchun fotoelektron spektrilarda molibdenning zona tuzilishi tufayli energetik qiymatlar aniqlanadi, niobiy ionlari bilan legirlangandan keyin olingan spektrda esa Fermi sathidan 0,5 eV pastda qo'shimcha pik paydo bo'ladi.

Shunday qilib, past energiyali temperaturaga chidamli metall ionlarini implantatsiya qilishda birikma atomlari asosan metallning sirtga yaqin sohasida o'n atom qatlamigacha chuqurlikdagi namunada taqsimlanadi. Agar namuna implantatsiyasidan oldin Mo(111) fotoemissiyaning kvant chiqishining tushayotgan fotonlarning energiyasiga qarab mahalliy darajada o'sishi, Implantatsiyadan keyin zaif bog'liqlik mavjud Y =f(hν). Bu, ehtimollik, sirtda atom qatlami tuzilishining tartibsizligi va niobiy atomlari implantatsiyasidan keyin sirt aks ettirish effektining o'zgarishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, kiritilgan ionlar namuna bilan qattiq birikma hosil qiladi, bu esa panjara tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Sirt qatlamidan emissiyada ishtirok etadigan fotoelektronlar nuqsonlarning paydo bo'lishi va ion kiritish paytida radiatsion ta’siri tufayli energiyasining bir qismini yo'qotadi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu jarayonlarga kristalning qizishi va o'rnatishda qoldiq gazlarning mavjudligi ta'sir qiladi.

Qizdirishda keyingi hν=8,4 eV da T = 1400 K da olingan birikma sirt qatlamining elektron holatlarining xususiyatlari aniq namoyon bo'ladi. Sof metallarda past energiyali qiymatining kelib chiqishi, asosan, fotoelektronlarning energiya yo'qotilishi, elektron-elektron tarqalishning noelastikligi bilan bog'liq. Ionli legirlash bilan qattiq jismda to'qnashuvlar kaskadi rivojlanadi. Bunday holda, metall matritsada bo'sh joylar va tugunlararo atomlar kabi ko'plab nuqsonlar hosil bo'ladi. Shunday qilib, past energiyali maksimal amplitudaning sezilarli darajada oshishi strukturaviy va nuqta nuqsonlarida fotoelektronlarning energiya yo'qotilishi bilan bog'liq. Amplitudaning pasayishi kristallni qizdirishdan keyin strukturaning ba'zi holatlari bilan bog'liq. Molibden (100) va (110) yuzasidan yo'naltirilgan fotoemissiya o'rganildi. Mo (111) ning toza yuzasi uchun bizning ma'lumotlarimiz natijalarga yaxshi mos keladi. Fermi sathidan 0,5 va 1,4 eV past bo'lgan A va B cho'qqilarining holati foton energiyasiga bog'liq emas. Bilvosita o'tish modelidagi N(E) egri chiziqlar uchun o'xshash xususiyatlar valentlik zonasining elektron holatlarining maksimal zichligiga mos keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Fermi sathi (0,5 eV) yaqinida joylashgan cho'qi sirtiy adsorbsiyalangan gazlar bilan ifloslanishiga juda sezgir.



2-rasm. Sof fotoelektron spektrlari (egri chiziq 1) va ion bilan implantatsiya qilingan Nb^+ E= 3 keV li D=3•10^{14} ion·sm^{-2} da Monokristal Mo (111): 2– T= 1200 K, 3– T=1400 K da qizdirilgandan keyin.

Ko'rinishidan, bu cho'qqi sirt rezonans holati bilan bog'liq. Ion qo'shilgan molibden yuzasidan 10 va 8,4 eV foton energiyasida olingan N(E) egri chiziqlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Fermi sathidan past bo'lgan 1,25-1,3 eV energiyadagi qo'shimcha maksimallar implantatsiya qilingan niobiy atomlari bilan bog'liq. Implantatsiya qilingan niobiy atomlari Niobiyning 4d-elektronlari bilan bog'langan energiya taqiqlangan zona hosil qiladi. Ko'rinib turibdiki, ushbu elektronlar molibden taqiqlangan zonasining sirt simmetriyasi yo'nalishi bo'yicha tarmoqli bo'shliqda joylashgan. Olingan natijalarni tahlil qilar ekanmiz, shuni ta'kidlaymizki, bir qator mualliflar tomonidan sirt holatlaridan elektronlarning chiqishini modeli hisob-kitoblari shuni ko'rsatdiki, sirt holatlari qatlami 2,5 atom qatlamidan iborat. 0,5 keV da fotoelektronlarning spektridagi cho'qqilar ham sirt holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Niobiyning ГН yo'nalishidagi zonaviy tuzilishida Fermi sathidan 1,3–1,4 eV past energiyada yuqori zichlikdagi holatlar mavjud emas. Shuning uchun spektrda 8,4 eV va 10 eV da yaxshi o'sadigan B cho'qqisi, ehtimol, sirt holatlarining emissiya natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бурибаев И., Нурматов Н.А., Эргашов Ё.С., Талипов Н., Холов А. // Поверхность. Рентгеновские, синхротронные и нейтронные исследования. -Россия, 2012, №9, -С.55-58.
2. Томошев Н.Д., Гусева Н.И., Федосеева Г.А. Техническая физика 265, 1129 (1981).
3. Buribaev I., Nurmatov N.A. //Journal of Elect. Spect. and Relat Phenom. – 1994, -V-68, -P.547-551.

GADOLINIY KIRISHMA ATOMLARI BILAN LEGIRLANGAN KREMNIYNING ELEKTR XUSUSIYATI

G‘.X. Mavlonov, Y.A. Abdug‘aniyev, B. K. Ismaylov, SH.N. Ibodullayev, B.O. Isakov, G‘.A. Kushiev

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

e-mail: yoldoshaliabduganiyev2@gmail.com

Lantanoid element birikmalar bo‘yicha so‘ngi paytlarda ko‘plab olimlar va mutaxasislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tufayli zamonaviy datchiklar va magnitelektron qurilmalarni yaratishga imkon beradigan yangi materiallar olingan [1-4]. Ushbu sohaga bo‘lgan katta qiziqishning sababi nafaqat ushbu materiallarning texnologiyada keng qo‘lanilishi, balki ularning asosiy fizik xususiyatlarini tushinishga hissa qo‘shish imkoniyatidir. Ferromagnitizim atom magnit momentlarining qattiq jisimning hajmida o‘zaro parellel tartiblanishi bilan belgilaniladi [5]. Metallarda elektronlar konsentratsiyasi ko‘p bo‘lganligi uchun ularning spinlarini boshqarish nisbatan oson. Yarimo‘tkazgichlar esa, xususan kremniy diamagnetik material. Kremniyga yuqori spin tartiblanish imkoniyatiga ega lantanoidlar kabi kirishma atomlarini kiritish orqali uning magnit xossasini o‘zgartirish mumkinligi ko‘rsatilgan[6]. Natijada yarimo‘tkazgichli materiallardan spintronikada foydalanishga qiziqish ortti, masalan spin tranzistorlarini ishlab chiqarish. *4f* guruxi elementlaridan kremniy magnit xossalarini o‘zgartirishda foydalanishga qiziqish ortib bormoqda.Gd atomlari elektron qobiqlaridagi $4f^7$ elektronlar spini S=$\frac{7}{2}$ga teng deb xisoblanadi. Shuning uchun kremniyga kiritilgan Gd atomlarining uning magnitxossalariga ta’sirini o‘rganish ham ilmiy xam amaliy ahamiyatga ega.

Kirishma atomlari sifatida tanlab olingan 99,999% (Hebei Suoyi New Material Technology Co., Lt zavodidan olingan) kimyoviy toza bo‘lgan yevropiy (Gd) metall elementining kirishma atomlari boshlang‘ich n-turdagi kremniyga gaz holatdan diffuziya qilindi. Bunda boshlang‘ich kremniyning solishtirma qarshiligi ρ=6; 40; 60 va 80 Om·sm tanlab olindi va geometrik o‘lchamlari 8×4×1mm^3 da qilib tayyorlandi. MG17-60/300 rusmli turbkali elektrpechda T=1200˚÷1350˚C harorat va t=6÷15 soat oralig‘ida kirishma atomlar kremniyga gaz holatidan diffuziya qilindi. Diffuziyadan so‘ng kremniy namunalari sekin sovitish yo‘li bilan sovutib olindi. Gadoliniy kirishma atomlarining diffuziya koeffitsienti kichikligini hisobiga kirishma atomlarni kremniyga kirish chuqurligi kichik qiymatlarida bo‘ldi.

$$D = D_0 e^{-\frac{E_a}{kT}} \quad (1)$$

Ushbu bog‘liqliklardan foydalanib asosiy diffuziya parametrlari aniqlandi(2).

$$D_{Gd} = 3\cdot 10^{-2} e^{-\frac{2,9}{kT}} \quad (2)$$

Bu yerda E_{Gd}=*2,9* eV kremniyda gadoliniyni energiya aktivatsiyasi.

Kirishma atomlarni kremniy monokristallining kristal panjarasidagi asosiy kremniy atomlarini o‘rniga panjara tuginida joylashishi aniqlandi [6]. Diffuziyadan so‘ng olingan kremniy namunalarining elektrofizik parametrlari ECOPIA HALL HMS-3000 rusmli qurilma yordamida o‘rgandi.Gadoliniy kirishma atomlarining kremniydagi maksimal eruvchanlik konsentratsiyasi $N=10^{18}\div10^{19}$ sm^{-3} oralig‘ida bo‘ladi [7]. Tajriba natijasida gadoliniy kirishma atomlarining kremniydagi konsentratsiyasining taqsimoti olindi (1-rasm)



Rasm-1. Kremniyda gadoliniyni temperaturaning diffuziya koefsentiga bog‘liqligi.

$$C(x,t) = C_0 erfc(\frac{x}{2\sqrt{Dt}}) \quad (1)$$



Rasm.2. Kremniyga gadoliniy krishma atomini konsentrasiya taqsimoti.

Diffuziadan keyingi zaryad tashuvchilarni xarakatchanligi Si<Gd> μ=*191-309* sm^2/V×s Kremniy monokristalliga gadoliniy kirishma atomlarini diffuziyasidan keyingi elektrofizik parametrlari haqidagi ma’lumotlar 1-jadvalda berildi.

Namunalar	O‘tkazuv-chanlik turi	Boshlang‘ich materilaning solishtirma qarshiligi, ρ, Om·sm	Zaryad tashuvchilar-ning harakatchanlig, μ, $sm^2/B \cdot c$	Tok tashuvchilarning konsentratsiya miqdori, N, cm^{-3}
KEF-80	n	73	1077	$7{,}9 \cdot 10^{13}$
KEF-40	n	38,6	978	$1{,}65 \cdot 10^{14}$
KEF-6	n	6,93	571	$1{,}1 \cdot 10^{15}$
Si<Gd> KEF-80	p	0,7	74	$1{,}1 \cdot 10^{17}$
Si<Gd> KEF-40	p	1,3	133	$3{,}5 \cdot 10^{16}$
Si<Gd> KEF-6	p	0,38	208	$7{,}21 \cdot 10^{16}$

Foydanilgan adabiyotlar

1. M.A. Ruderman, C. Kittel. Indirect exchange coupling of nuclear magnetic moments by conduction electrons// Phys. Rev. 96 (1954) pp. 99–102.
2. Dmitry V. Averyanova, Andrey M. Tokmacheva, Oleg E. Parfenov, Igor A. Karateev,Ivan S. Sokolova, Alexander N. Taldenkova, Mikhail S. Platunovb, Fabrice Wilhelmb, Andrei Rogalevb, Vyacheslav G.Storchaka. Probing proximity effects in the ferromagnetic semiconductor EuO//Applied Surface Science/488, 1 N.I.
3. Solin, L.N. Romashev, S.V. Naumov, A.A. Saranin, A.V. Zotov, D.A. Olyanich, V.G. Kotlyar, O.A. Utas. Magnetic resistive properties of nanostructured magnetic metals, manganites and magnetic semiconductors // JTF. 2016. T. 86. Vyp. 2. S. 78–845, -2019 pp.107-114.
4. Arne Brataas, Bart van Wees, Olivier Klein , Grégoire de Loubens, Michel Viret//Spin insulatronics. 885(2020) 1-27.
5. F. Formisanoa, R. Medapallib, Y. Xiaob, H. Renb, E.E. Fullertonb, A.V. Kimela. Femtosecond magneto-optics of EuO//Journal of Magnetism and Magnetic Materials 502 (2020)166429.
6. B.I. Boltaks, M.K. Bakhadyrkhanov, S.M. Gorodetsky, G.S. Kulikov. Compensated silicon. //L.: Nauka, 1972. p 122.
7. D.E. Nazyrov, A.R. Regel, G.S. Kulikov. Silicon alloy rare earth elements. //Preprint. FTI im. A.F. Ioffe AN USSR. No. 1122. 1987. 56 S
8.Vladimir V. Korolkov, Alex Summerfield, Alanna Murphy, David B. Amabilino, Kenji Watanabe,Takashi Taniguchi& Peter H. Beton.//Ultra-high resolution imaging.

СВОЙСТВА КРЕМНИЯ, ЛЕГИРОВАННОГО АТОМАМИ ЖЕЛЕЗА

Х.С Далиев, [1]С.А. Музафарова, [1]З.М. Хусанов, [2]М.К. Хусанова
[1]НИИ физики полупроводников и микроэлектроники УзМУ,
Ташкентский химико-технологический институт,
[2]Школа-315, Алмазарский район, город Ташкент

Исследованы состояния атомов железа в кремнии и установлено, что при диффузии n-Si с железом сплавление с резким увеличением удельного сопротивления приводит к смене типа проводимости на p-тип. Это свидетельствует о том, что при внедрении железа в кремний вводятся как акцепторные, так и донорные центры.

На сегодняшний день известно, что легирование кремния Si редкими элементами оказывает существенное влияние на рабочие характеристики полупроводниковых приборов и интегральных схем [1-2]. Кроме того, в литературе имеются противоречивые сведения об активности атомов редких элементов (РЭ) и их взаимодействии с другими дефектами.

Во многих исследованиях информация об электрической активности атомов НЭ неполна. Известно, что РЭ, введенный в кремний в процессе роста, обладает высокой химической активностью и находится в кремнии в электрически неактивном состоянии [3-4].

Поэтому целью настоящей работы является комплексное исследование состояния атомов Fe-железа в кремнии и их взаимодействия с растущими включениями.

В качестве исходного Si-кремния был выбран КЭФ-50.

Исходный образец – [КЭФ-50] ***(Исходный Si)*** ***Таблица 1***

Si	**Концентрация действующих перевозчиков, n ($см^{-3}$)**	**Мобильность текущих перевозчиков, μ ($см^2$/Вс)**	**Удельное сопротивление образцов, ρ (Ом*см)**	**Тип проводимости (тип)**
	1,402E+14	9,855E+2	5,016E+1	n

Результаты измерений удельного сопротивления ρ после диффузии Fe в Si при 1200 ^{0}C в течение 10 часов приведены в табл. 2.

Для атома железа Si<Fe> T=1200^{0}C, t=10 часов. Таблица 2

№	Толщина удаляемого слоя, X (мк)	Концентрация действующих перевозчиков, n (см$^{-3}$)	Мобильность текущих перевозчиков, μ (см^2/Вс)	Удельное сопротивление образцов, ρ (Ом*см)	Тип проводимости (тип)
1	5	1,290E+16	1,191E+2	4,062E+0	p
2	10	1,226E+16	1,070E+2	4,758E+0	p
3	20	8,142E+15	1,473E+2	5,204E+0	p
4	30	6,523E+15	1,376E+2	6,953E+0	p
5	40	6,308E+15	7,625E+1	1,298E+1	n
6	50	5,315E+15	9,345E+1	1,257E+1	n
7	60	3,260E+15	1,549E+2	1,236E+1	n
8	70	2,957E+15	1,789E+2	1,180E+1	n
9	80	2,802E+15	1,660E+2	1,342E+1	n
10	90	4,303E+15	1,117E+2	1,299E+1	n
11	100	3,200E+15	1,673E+2	1,166E+1	n

Первая поверхностная область характеризуется резким увеличением удельного сопротивления ρ на 4-5 порядков, а вторая характеризуется практически плоским распределением удельного сопротивления ρ в объеме кремния [7-8]. Следует отметить, что значение удельного сопротивления ρ в контрольных образцах (без входов РЭ) существенно не меняется с глубиной. На основании полученных результатов для данного монокристаллического кремния был определен уровень Ферми (рис. 1).



Рис. 1. Очевидное изменение уровня Ферми в кремнии n-типа после легирования железом.

Полученные результаты показывают, что уровень Ферми увеличивается с увеличением концентрации (рис. 1). Из полученных результатов можно сделать вывод, что легирование n-Si путем диффузии с железом приводит к резкому увеличению значения удельного сопротивления, что свидетельствует об образовании как донорного, так и акцепторного уровней при внедрении атома железа в кремний.

Литература

1. X.S. Daliev «The Energy Spectrum of Defects in Silicon, Doped with Vanadium» World Journal of Research and Review (WJRR) ISSN:2455-3956, Volume-5, Issue-2, // 2017. Pages 54-56

2. Bakhadirkhanov M.K., Isamov S.B., Zikrillayev N.F., Tachilin S.A. «Quantometers of solar IR radiation based on silicon with multicharged nanoclusters of magnesium atoms». // Applied Solar Energy (English translation of Cellotekhnika). 2012. 48 (1). С. 55-57.

3. С. Зайнабидинов. Физические основы образования глубоких уровней в кремнии. // Т. Фан. 1984 г. С. 121.

4. Э.М. Омельяновский, В.И. Фистуль. Примеси переходных металлов в полупроводниках. // М., Металлургия, 1983. С.192.

5. Далиев Х. С., Лебедев А. А. Свойства легированных полупроводниковых материалов. // 1990. М.: Наука

6. З.М. Хусанов, А.А.Акбаров. “Металларда ва бошқа элементар кристаллардаги хусусий атомлар диффузияси”. Таълим жараёнида аниқ ва табиий фанлар инавацион татқиқотларининг долзарб масалалари Республика илмий – амалий анжумани. // Қўқон ДПИ – 2020 й. 29 – май. 101-105 б

7. Kh.S. Daliev, Z.M. Khusanov, F.A. Saparov “Study of temperature effects in structures Silicon with Vanadium” Яримўтказгичлар физикаси микро ва наноэлектрониканинг фундаментал ва амалий муаммолари” мавзусидаги 1-халқаро анжуман // Тошкент 2021. с 16-17

8. Далиев Х.С., Тукфатуллин О.Ф., З.М. Хусанов., Йулдошев З.Н. “Спектры ИК-поглощения в кремнии, легированном ванадием и железом” Ўзбекистон Миллий Университети ҳузуридаги яримўтказгичлар физикаси ва микроэлектроника илмий-тадкикот институти Ўзбекистон физик-талабалари ва ёш олимлар ассоцияцияси “Ёш олимлар ва физик талабаларнинг I-Республика илмий анжумани (ЁОЛФТРИА-I)” // Тошкент 2021 й. 23-24 б.

RADIOELEKTRON (RE) QURILMALARINI DIAGNOSTIKA QILISHDA YUZAGA KELADIGAN QIYINCHILIKLAR VA ULARNI YECHISH YO’LLARI

M. Aripova, B. Ibragimova, N. Yunusov Nurod
Toshkent davlat texnika universiteti

Texnik ob’ektlar va sistemalar chegaralangan puxtalikka ega hisoblanadi va tashqi va ichki xarakterdagi ta’sirlar asosida buzilishi va ishlash qobiliyatini yo‘qotishi mumkin. RE vosita ham murakkab texnik vosita hisoblanadi. RE vositalarni ishlab chiqarish sanoati RE vositasini buzilmasdan ishlashini ta’minlash uchun juda ko‘p izlanishlar olib bormoqda va bu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishildi. Shu sababli RE vositalarini seriyali ishlab chiqarishda nosozliklar juda kam holatlarda yuzaga keladi. RE vositalaridagi ba’zi buzilishlar turli talofatlar yuz berganda, tabiat xodisalari ta’sirida yoki texnika bilan noto‘g‘ri muloqat qilinganda yuzaga kelishi mumkin.

Har qanday texnik ob’ektni buzilishi tasodifiy hodisa hisoblanadi, uni yuzaga kelish joyi, vaqti, buzilishlar tipini oldindan aytib berishning umuman imkoniyati yo‘q hisoblanadi. RE vositalaridan foydalanish amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, vositalardagi buzilishlar va zararlanish RE vositasining barcha elementlarini ishdan chiqarmaydi. Qurilma tarkibidagi sezilarli qism elementlari ishdan chiqmagan va ishlashga tayyor hisoblanadi. RE vositalardan foydalanuvchilarining ko‘pchiligi, qurilmadagi buzilishni bartaraf etish, uni to‘liq almashtirishga qaraganda arzonroq tushishini biladi. Shuning uchun vositani buzilgan joyini tuzatishga harakat qilinadi. Bunda RE vositasini buzilgan joyini izlash va aniqlash masalasi yuzaga keladi. Agar buzilish joyi yuqari aniqlik bilan topilsa uni bartaraf etishga sarflanadigan vaqt va ketadigan ish xajmi kamayishiga erishiladi, tiklash uchun ketadigan sarf-xarajatlar qisqaradi va zaxira qismlarni sarflash kamayadi.

RE qurilmasidagi nosozlikni aniqlash masalasi asosan xizmat ko‘rsatish xodimlari operatorlari yoki sozlovchilari tomonidan yechiladi. Nosozliklarni izlash va aniqlash malakasi asosan malakali mutaxassislar ishlarini kuzatish va takrorlash orqali yoki izlash eksperimentlarini mustaqil amalga oshirish yo‘li bilan egallanadi. Xozirda RE vositalarida to‘satdan yuz beradigan nosozliklarni izlash va uni bartaraf etishning asoslangan va ob’ektiv texnologiyasi mavjud emas. Bu esa nosozliklarni izlash malakasini egallash uchun birmuncha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Katta RE sistemalarda nosozliklarni izlash va ularni bartaraf etishga ketadigan sarf xarajatlar sezilarli katta bo‘ladi.

Texnik qurilmalarda nosozliklarni bartaraf etish - bir-biriga o'xshash ob'ektlar to'plamidan berilgan xususiyatlarga ega ob'ektni tanib olishning bir turidir. Bunday masalalar noaniqliklar sharoitida yechimlar qabul qilish kerak bo‘lgan bilim sohalarida, ya’ni tibbiyotda, biologiya, texnika sohalarida, insonning tashkiliy-texnik va tashkilotchilik faoliyati sohasida xarakterli bo‘lib, diagnostik muammolar qatoriga kiradi. Ilmiy adabiyotlarda xolatlarni idrok etish masalasiga bir qator ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, lekin amaliy uslublar va yechilgan misollar juda kam uchraydi.

Nosozliklarni bartaraf etish bu montaj qilish, o‘lchash va sozlash operatsiyalar to‘plamlari hisoblanib, ko‘pchilik holatlarda apparatdagi buzilgan joyni almashtirish va uni qaytadan sozlash amallari bajariladi. Juda ko‘p ta’mirlash bo‘yicha mutaxassislar asosan buzilishlarni oddiy detallar darajasida bartaraf etishni taklif etadilar. Lekin, radioelektron qurilmani professional ishlatilganda shunday holatlar yuzaga keladiki, RE qurilmani qaytadan tiklash vaqti juda qisqa bo‘lishligi talab etiladi. Bunday holatlarda buzilish sodir bo‘lganda, ta’mirlash uchun vaqt sarf qilmay, qurilmadagi katta blokni yoki butun qurilmani almashtiriladi. Bu yerda qurilmani tiklash uchun minimum vaqtni izlash muammosi kelib

chiqadi. Holatlarni idrok etish yoki diagnostika qilish RE qurilmani ta’mirlashga yaroqliligi muammosini yechishda asosiy o‘rinni egallaydi.

Radioelektron qurilmani tashkil etuvchi radioelektron va elektromexanik qismlar, juda turli-tuman elementlardan tashkil topadi va bu elementlarning har biri qurilmani ishlashi uchun juda muhim hisoblanadi. Hohlagan elementning ishdan chiqishi, RE qurilmani butunlay buzilishiga yoki ishlashi sifatining yomonlashishiga olib keladi. Qurilmaning ishlamay qolishining sababini aniqlashning bir zumda topish, qaysi detal ishdan chiqqanligini, qanday buzilish yuz berganini aniqlash juda muhim hisoblanadi.

Buzilish yuz berishi bilan RE qurilma nosoz holatga o‘tadi. Har bir elementning ishdan chiqishi, qurilmani alohida holatga o‘tishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun qurilmaning turli nosoz holatlari, qurilmadagi barcha elementlarining buzilish holatlari soniga teng bo‘ladi.

Inson texnika bilan ishlaganda doimo uning holatidan xabardor bo‘lib turishi zarur hisoblandi. Bu masala birinchi texnika vositasi yaratilgandan beri dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Lekin texnik maxsulotning murakkablik darajasi oshib borishi bilan, uning holatini baholab borishga qiziqish ham oshib bormoqda.

Keyingi yillarda texnik qurilmaning holatini baholash sistemalashtirildi va uni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilib kelinmoqda. To‘plangan barcha ma’lumotlardan murakkab ob’ektlar holatlarini idrok etish va ularning holatlarini diagnostika qilish uchun foydalaniladi.

Texnik diagnostika qilishda asosan uchta o‘zaro bog‘langan masalalar yechiladi:

1) Diagnostika qilinayotgan ob’ekt ishchanlik holati tekshiriladi. Bu masalani yechimi natijasiga qarab qurilmadan mo‘ljallanishi bo‘yicha foydalanish yoki uning holatini taxlil qilishga o‘tiladi.

2) Diagnostika qilinayotgan ob’ekt tarkibidagi nosoz elementlar izlanadi. Bu masalaning yechimida dastlabki buzilish sababi aniqlanadi, buzilgan elementlar yoki zararlangan qismlar aniqlanadi.

3) Diagnostika qilinayotgan ob’ekt holati imkoniyatiga qarab prognoz qilinadi, ya’ni ma’lum vaqtgacha ishlashi mumkinligi, xarakteristikalari sekin asta yomonlashib borishi yoki ob’ekt umuman o‘z vazifasini bajarmasligi aniqlanadi.

Texnik diagnostika qilishdagi bu uchta masala RE qurilmani holatini aniqlashda bir-biriga bog‘liq hisoblanadi. Diagnostika va ta’mirlashga yaroqlilik masalasini o‘rganshda doimo qiyinchiliklarga duch kelinadi. Ko‘pgina holatlarda RE vositalar, elektron jixozlar va elektromexanik vositalar avtonom harakatlanuvchi ob’ektlarda qo‘llaniladi va ularning holatlari hayot uchun zarur bo‘lgan holatlar hisoblanadi. Bunday murakkab vositalarni ko‘plab ishlab chiqarish sharoitlarida va ulardan foydalanishda ta’mirlash sistemasini ta’minlash juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun tamirlashga yaroqlilik masalasida, texnik ob’ektlarda to‘satdan yuz beradigan nosozliklarni izlash va ularni bartaraf etish vosita va texnologiyalari, uslublari to‘plamlari ko‘rib chiqilgan bo‘lishi, texnik ob’yektni usha joyda ishlash qobiliyatini tiklashni ta’minlovchi texnologiya ishlab chiqilishi, kerakli zaxira elementlar va qismlar, o‘lchash vositalari va texnologik jixozlar mavjud bo‘lishligi ta’minlanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gumenyuk V.M. Nadejnost i diagnostika elektrotexnicheskix sistem: Ucheb. posobiye dlya vuzov. — Vladivostok: Izd-vo Dalnevost. gos. texn. un-ta, 2010. - 218s.
2. Davidov P.S. Texnicheskaya diagnostika radioelektronnx ustroystv i sistem. M.: Radio i svyaz, 1988. -256 s.

KREMNIY VA KREMNIY GERMANIY NUQSONLARINING TAVSIFI

M.A. Solayeva
Urganch Davlat Universiteti

Turli intensivlik bilan nurlantirilgan qattiq aralashmalarda radiatsion nuqsonlarning miqdorini aniqlash matematik ifodasi keltirilib chiqarilgan. Bu ifodadan birlamchi nuqsonlar orasidagi reaktsiyalar sodir bo`lish extimolliklari germaniy miqdoriga bog`liq bo`lishi mumkin. Buni tekshirish maqsadida turli tajribalar o`tkazilgan.

Buning uchun turli tarkibli SiGe namunalari olinib, 5 MeV energiyali elektronlar bilan nurlantirilgan. Nurlantirish dozalari 10^{17} sm^{-2} , $5{\cdot}10^{16}$ sm^{-2} , 10^{16} sm^{-2} qilib tanlangan.



1-rasm. Tarkibida germaniy miqdori kichik bo`lgan namunalarni elektronlar bilan nurlantirilgan divakansiya miqdorining bog`lanishi.

Divakansiyalar kontsentratsiyasini infraqizil yutilish spektrdagi divakansiyalar yutilish chizig`iga qarab aniqlangan. 2 va 3- rasmlarda ayrim namunalarning yutilish spektrlari keltirilgan.

Olingan natijalar kompyuter yordamida “Origin” dasturida qayta ishlangan. Qayta ishlashda qo`shni ikki pikning ta’siri xisobga olingan, undan uzoqdagi piklarning ta’siri sezilarli darajada emas deb xisoblangan. SiGe qattiq qotishmalar tarkibida germaniy miqdori ortib borgan sayin uning ta’qiqlangan soha kengligi kamayib boradi (E_g(Si)=1,07 eV, E_g(Ge)=0,74 eV). Shu sababli divakansiyaning yutilish pikining o`rni o`zgarib boradi.



2- rasm. Tarkibidan 5,1 at% IQ yutilish spektri.

Atomlarning temperaturaviy tebranishlari natijasida yutilish spektrida yutilish chizig`i kengayishi kuzatiladi. Bundan tashqari namunaning bir jinsliligi yomon bo`lganda va komponetlar tarkibining fluktuatsiyalari sababli yutilish pikining kengayishi sodir bo`ladi.



3-rasm. Tarkibidan 7,44 at % IQ yutilish spektri.

1-rasmda Eksperimental tajribalardan olingan ma’lumotlar nazariy xisoblangan ma’lumotlar bilan mos kelayotganini ko`rsatyapti. Natija qilib shuni aytish mumkinki radiatsion nurlantirish natijasida xosil bo`ladigan divakansiyalar miqdori qattiq qotishma miqdoridagi germaniy miqdoriga bog`liq.

Namuna sifatida ushbu mavzumizda innovatsion texnologiyalarni qo’llanishini ko’rib chiqamiz. Masalan, **“FSMU” metodi:**

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya o’quvchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o’zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg’ulotlarida, mustahkamlashda, o’tilgan mavzuni so’rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg’ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

O’quvchilarga mavzuga oid bo’lgan yakuniy xulosa yoki g’oya taklif etiladi;

har bir o’quvchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog’ozlarni tarqatiladi:

o’quvchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili o’quvchilarda kasbiy–nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o’zlashtirilishiga asos bo’ladi.



Fikr:“ Kremni va germaniy yarim o’tkazgichlarning radiatsion nuqsonlarini tadbiq qilish usullari haqida fikr bildiring!”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

O’quvchlarga dars mavzusini mustahkamlash jarayonida yuqoridagi fikr bo’yicha savollar beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Saidov M.S.,Atabaev I.G. i dr.Fononnie spektri poglosheniya tverdix rastvorov Si1-xGex . DAN RUz, 1986, № 3, s. 24-25.

2.Atabaev I.G.,Saidov D.Reshenie sistemi uravneniy,opisivayushix obrazovanie divakansiy v tvyordix rastvorax $Si_{1-x}Ge_x$//UzFJ.–Tashkent,2008.-Vip 10.-№1.S.4246.

3. Atabaev I.G., Matchanov N.A., Yusupov A., Saidov D.Sh., Saidov M.S.
Influence of Ge content on formation of radiation defects in $Si_{1_x}Ge_x$ solid solutions // Computational Materials Science. - Accepted 10 June 2008.

4. Bugay A.A., Maksimenko V.M., Turovskiy B.M., Xirunenko L.I., Shaxovtsov V.I. Shinkarenko V.K., Gorbacheva N.I. Issledovanie radiatsionnix defektov v splave kremniy-germaniy metodom EPR i IK spektroskopii // FTP.1984.t.18. vip. 11.S. 2020-2023.

5. Jalolova P.M. Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. No 12. – Pp. 1547–1553

6. Jalolova P.M. Theoretical- methodological aspects of quantum physics section in the credit module system // Solid State Technology, 2020. – Vol. 63 Issue 6. – Pp.152–158.

7. Jalolova P.M. Методы использования информационных технологий в изучении физики. // Materialien von XVI International wissen schaftliche und praktische Konferenz. Februar – März. – Berlin, 2020. –Vol.11. Pp. C.69–73.

QUYOSH ELEMENTLARINI TAYYORLASH UCHUN KERAK BO’LADIGAN OPTIMAL PARAMETRLI YARIM O’TKAZGICHLI MATERIALLAR

[1]M.I. Abdubannobov, [2]X.T. Yuldashev
[1]Farg’ona Davlat Universiteti
[2]Farg’ona politexnika instituti

Quyosh elementlari yaratishning dastlabki davrlarida Quyosh nurlanishining spektri maksimumiga qiyoslab, optimal material sifatida man qilingan sohasining kengligi 2 eV bo’lgan YO’ material olingan. Keyinchalik esa, shu narsa aniqlandiki, fotoaktiv kvantlar sonini oshirish va qisqa tutashuv tokining o’sishi uchun man qilingan soha kengligi E_g ning qiymati 2 eV dan kichik bo’lishi kerak ekan. Ammo bu holat uchun generatsiya qilinayotgan foto-EYuK ning qiymati nisbatan kamayishi aniq, chunki p-n o’tishdagi potentsial to’siq qiymati pasayadi [1-2].

Keyinchalik varizon (man qilingan soha qiymatini o’zgartirish imkoniyati mavjud bo’lgan materiallar) YO’ materiallarni QE tayyorlashda ishlatilishi imkoniyati paydo bo’lganida, ularni tadbiq qilishning 2 turi taklif qilindi.

1. Bevosita geteroo’tishlarni qo’llash.
2. Man qilingan sohasi qiymati baza materiali man qilingan sohasi qiymatidan katta bo’lgan YO’ qatlamni keng sohali darcha sifatida qo’llash.

Har xil optimallashgan materialdan tayyorlangan QE uchun optik va fotoelektrik yo’qotishlarning qiymati baholandi.

Quyosh elementining effektiv kvant chiqishi Q_{eff} va yig’ish koeffitsienti γ amalda bir xil kattalikdir, shuning uchun bu ikki kattalikni bir xil belgida yozamiz va uni yig’ish koeffitsienti Q deb ataymiz [3-4]. Bu fizik kattalik, p-n o’tish orqali o’tgan va ajratilgan ortiqcha zaryad tashuvchilarning optik nurlanish vositasida hosil qilingan elektron- teshik juftliklar soniga, nisbatidir. Q xuddi p-n o’tish orqali o’tayotgan toklardek, r- va n- sohalar yig’ish koeffitsientlarining yig’indisiga teng bo’ladi, ya’ni$Q= Q_n+Q_p = I_{kz}(l-r)qN_e$,
bu yerda I_{kz} r- va p-sohalardagi elektron va teshiklar toklarining yig’indisidir. YaO’ material ichiga kirgan quyosh nurlanishi fotonlari taqsimoti N_e, material uchun belgilangan $\alpha(\lambda)$ orqali hisoblanadi.

Quyosh batareyalari tayyorlashdagi asosiy texnologik jarayonlar quyidagilardan iboratdir:
-QE larini tegishli parametrlar bo’yicha saralash,
-elementlarni berilgai kuchlanish va tok kuchi olish uchun kommutatsiya qilish,
-QB larini korpuslarini tayyorlash,
-kommutatsiya qilingan elementlarni batareyaga joylash va uni germetizatsiya qilish,
-QB larini parametrlar bo’yicha o’lchash va saralash.

Quyosh batareyalari va fotoelektrik qurilmalarning quvvatini hisoblash namunalari. QB va FEQ lar quvvatini hisoblash uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

1. Fotoelektrik qurilma quvvatini hisoblash uchun avvaliga uni ishlatilishi ko’zda tutilgan muxit bilan tanishish va shu muxit xususiyatlarini (o’rtacha harorat, yorug’lik nurlarining o’rtacha quvvati, yorug’lik tushish muddati, yil davomidagi yorug’ kunlar va hokazo) o’rganish zarur.
2. Elektr energiyasi iste’molchilarining xarakterini (o’zgarmas va o’zgaruvchan tok iste’molchilari xususiyatlari), iste’molchilarning elektrik parametrlari (tok kuchi, kuchlanishi, o’zgaruvchan tok chastotasi), kerakli umumiy elektr quvvatini hisoblash va xar bir iste’molchiga bir
kunda o’rtacha ishlatish vaqtini aniqlash zarur.

3. Ortiqcha ishlab chiqilgan elektr energiyasini hisoblash va energiyani yig’ish usulini tanlash.
4. Yig’uvchi akkumulyator elektr sig’imini hisoblash.
5. Fotoelektrik qurilma yig’ish uchun kerak bo’ladigan standart va nostandart asbob uskunalarni aniqlash.
6. Invertorlar parametrlarini, quvvatini va foydali ish koeffitsientini aniqlash.
7. Kontrollerlarning parametrlarini va quvvatini aniqlash.
8. Fotoelektrik qurilma konstruktsiyasini tanlash, parametrlarini rejalash, tayyorlash texnologiyasini aniqlash.
9. Fotoeletrik qurilmani tayyorlash.
10. Fotoelektrik qurilma qismlarini sinash. Qurilmani butunicha sinash.
11. Fotoelektrik qurilmani sinash natijalarini hisobga olgan xolda uni parametrlarini optimal holga keltirish.
12. Qurilmani tajribaviy sinash, hisob va rejaviy natijalar bilan taqqoslash.
13. Fotoelektrik qurilmaga ketgan xarajatlarni qoplash muddatini va samaradorligini aniqlash.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, agar frontal yupqa qatlamga kontakt materiali dastlab butun sirtga qoplama sifatida olinib, keyin ma’lum shaklli rasmni fotolitografik jarayon vositasi bilan ximik yemirish orqali bajarilsa, frontal yuzada ko’plab mikro teshilgan xududlar paydo bo’lar ekan. Bu esa o’z navbatida, shunt qarshiligini kamaytirib teskari to’yinish toki I_0 ni oshirib yuborar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

